



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 3-son

VOLUME 4 / ISSUE 3 / 2024
ISSUE DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.4.3.

ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.



Crossref
Content
Registration

MUASSIS:
TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu jurnal O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
Y. Mahmudov, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik,
E. Mustafayev

Musahhih:
S. Rasulova

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Jurnal 25.09.2024-yilda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 7

Adadi: 100. Buyurtma: № 141.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

N. Salayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR

S. Samadov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘i v.v.b.

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

D. Bazarova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

K. Hakimov – TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

M. Rustambayev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

F. Raximov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

Q. Abdurasulova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

V. Davlyatov – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S. Niyozova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Sh. Xaydarov – Toshkent davlat yuridik universiteti professor v.b., yuridik fanlar doktori

R. Kabulov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Umirzakov – O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

I. Astanov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori

B. Pulatov – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori



**УЧРЕДИТЕЛЬ:
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Этот журнал создан при сотрудничестве с Правоохранительной академией Республики Узбекистан. Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.

Тел.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Факс: (0371) 233-37-48.

Веб-сайт: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1386.

Журнал передан в типографию
25.09.2024.

Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 7. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 141.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Н. Салаев – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Самадов – врио начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Д. Базарова – доктор юридических наук, профессор, заведующая кафедрой уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

К. Хакимов – доктор юридических наук, доцент, заведующий кафедрой уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

М. Рустамбаев – доктор юридических наук, профессор, ректор Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Ф. Рахимов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

К. Абдурашулова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

В. Давлятов – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент

С. Ниёзова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Хайдаров – доктор юридических наук, и.о. профессора Ташкентского государственного юридического университета

Р. Кабулов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан

Б. Умирзаков – доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент Академии МВД Республики Узбекистан

А. Баратов – кандидат юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета

И. Астанов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Б. Пулатов – доктор юридических наук, профессор Правоохранительной академии Республики Узбекистан

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan. The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
Y. Makhmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, Y. Yarmolik, E. Mustafae

Proofreader:
S. Rasulova

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.

Phone: (0371) 233-66-36,
233-41-09.

Fax: (0371) 233-37-48.

Website: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Subscription index: 1386.

The journal is submitted to the Printing house on 25.09.2024.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 7.

Units: 100. Order: № 141.

Printed in the Printing house of TSUL

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

N. Salayev – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

EDITOR-IN-CHIEF

S. Samadov – Acting Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF

D. Bazarova – Head of the Department of Criminal and Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law , Professor

EXECUTIVE EDITOR

K. Khakimov – Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of TSUL, Doctor of Law, Associate professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

M. Rustambayev – Rector of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

F. Raximov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

Q. Abdurasulova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

V. Davlyatov – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor

S. Niyozova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Sh. Khaydarov – Acting professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Kabulov – Professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Umirzakov – Associate professor of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)

A. Baratov – Associate professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

I. Astanov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

B. Pulatov – Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Xaydarov Shuxratjon Djumaevich

AYOLNI O'Z HOMILASINI SUN'IY RAVISHDA TUSHIRISHGA MAJBURLASHNING
OBYEKTIV BELGILARI 8

Kamalova Dildora Gayratovna

TAMOM BO'LGAN VA TAMOM BO'LMAGAN SUIQASD20

Yermashev Jengis Maratovich

BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNI SODIR ETGAN SHAXSNING
KRIMINOLOGIK TAVSIFI YUZASIDAN MULOHAZALAR29

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Dadaxanova Durdona Abdukaxxarovna

JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLARNI MAJBURIY MEHNATGA JALB QILISH BILAN
BOG'LIQ JAZOLAR TUSHUNCHASI39

Abdullayev Diyor Ibodillayevich

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI QONUNCHILIGI VA HUQUQNI
QO'LLASH AMALIYOTIDA EHTIYOT CHORASI SIFATIDA
UY QAMOG'INING O'ZIGA XOS JIHATLARI51

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Хайдаров Шухратжон Джумаевич

ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПОНУЖДЕНИЯ ЖЕНЩИНЫ К СОВЕРШЕНИЮ
АБОРТА 8

Камалова Дилдора Гайратовна

ОКОНЧЕННОЕ И НЕОКОНЧЕННОЕ ПОКУШЕНИЕ20

Ермашев Женгис Маратович

ВОПРОСЫ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛИЦА,
СОВЕРШИВШЕГО ПРЕСТУПЛЕНИЯ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ29

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Дадаханова Дурдона Абдукаххаровна

ПОНЯТИЕ НАКАЗАНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПРИНУДИТЕЛЬНЫМ ТРУДОМ
СОВЕРШИВШИХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ЛИЦ39

Абдуллаев Диёр Ибодиллаевич

ОСОБЕННОСТИ ДОМАШНЕГО АРЕСТА КАК МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ
В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ И ПРАВОПРИМЕНИТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ США51



CONTENTS

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

Khaydarov Shukhratjon Jumaevich

OBJECTIVE SIGNS OF FORCING A WOMAN TO HAVE AN ABORTION 8

Kamalova Dildora Gayratovna

COMPLETED AND INCOMPLETE ATTEMPTS20

Ermashhev Jengis Maratovich

ISSUES OF CRIMINOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PERSON WHO
COMMITTED CRIMES IN THE CUSTOMS SPHERE29

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Dadakhanova Durdona Abdukaxxarovna

THE CONCEPT OF PUNISHMENTS RELATED TO FORCED LABOR OF PERSONS
WHO HAVE COMMITTED CRIMES39

Abdullayev Diyor Ibodillayevich

DISTINCTIVE FEATURES OF HOUSE ARREST AS A PREVENTIVE MEASURE
IN THE LEGISLATION AND LAW ENFORCEMENT PRACTICE OF THE UNITED
STATES51

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.3./WPOC3689
UDC: 343.268.3(045)(575.1)

AYOLNI O'Z HOMILASINI SUN'IY RAVISHDA TUSHIRISHGA MAJBURLASHNING OBYEKTIV BELGILARI

Xaydarov Shuxratjon Djumaevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish kafedrasi professori v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-8188-7410
e-mail: Xaydarovshuxrat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyati tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari hamda jinoyatning obyektiv belgilari bayon etilgan. Shuningdek, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatining obyektiv belgilari jinoyat huquqi mutaxassisleri fikrlari asosida tahlil qilingan. Muallif ushbu olimlar fikrlariga ilmiy yondashib, o'z fikrlarini ilmiy tahlil qilish asosida yoritgan. Bundan tashqari, maqolada ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash uchun javobgarlik belgilangan JK 115-moddasining ayrim boshqa o'xshash jinoyatlar bilan bog'liq jihatlari ham to'xtalib o'tilgan. Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatidagi "majburlash" atamasi deganda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8 ta jinoyat tarkibidagi jinoyat obyektiv tomonining sodir etish usuli sifatida majburlash nazarda tutilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatlari Ispaniya, Marokash, Polsha, Latviya, Litva, Turkiya, Belgiya va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida qiyosiy o'rganilgan. Maqolada ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatining 2014–2022-yillardagi statistikasi, shuningdek, tadqiqot ishi yuzasidan o'rganilgan hukmlar ilmiy asosda tahlil qilib berilgan. Muallif ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan xulosa va takliflarini bergan.

Kalit so'zlar: jinoyat, javobgarlik, homila, majburlash, sog'liq, shikast, kvalifikatsiya, hayot, jabrlanuvchi, ruhiy, jismoniy, sun'iy, qonuniy, zo'rlik.

ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПОНУЖДЕНИЯ ЖЕНЩИНЫ К СОВЕРШЕНИЮ АБОРТА

Хайдаров Шухратжон Джумаевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и. о. профессора кафедры «Уголовное право,
криминология и борьба с коррупцией»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье раскрывается понятие преступления понуждения женщины к искусственному прерыванию беременности, его особенности, а также объективные признаки преступления. Также в статье проанализированы объективные признаки преступления понуждения женщины к аборту на основании мнений специалистов уголовного права. При освещении мнений этих учёных автор использовал научный подход, основанный на научном анализе. Кроме того, в статье затрагиваются аспекты статьи 115 Уголовного кодекса, которая устанавливает ответственность за понуждение женщины к совершению аборта, в связи с некоторыми другими подобными преступлениями. В статье анализируется, что под термином «понуждение» в преступлении понуждения женщины к аборту подразумевается понуждение как объективная сторона и способ совершения преступления в составе 8 преступлений, предусмотренных Уголовным кодексом Республики Узбекистан. Кроме того, на основе сравнительного анализа проанализированы преступления, связанные с понуждением женщины к аборту, в законодательстве Испании, Марокко, Польши, Латвии, Литвы, Турции, Бельгии и других зарубежных стран. В статье дан научно обоснованный анализ статистических данных за 2014–2022 годы по преступлению понуждения женщины к аборту, а также приведённых суждений по исследовательской работе. Также в статье даны научно обоснованные выводы и предложения по совершенствованию законодательных норм, предусматривающих ответственность за преступление понуждения женщины к аборту.

Ключевые слова: преступление, ответственность, плод, понуждение, здоровье, травма, квалификация, жизнь, потерпевшая, психическое, физическое, искусственное, юридическое, насилие.

OBJECTIVE SIGNS OF FORCING A WOMAN TO HAVE AN ABORTION

Khaydarov Shukhratjon Jumaevich,
Acting Professor of the Department of Criminal law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. *This article describes the concept of the crime of forcing a woman to have an artificial abortion, its characteristics, and the objective signs of the crime. The objective signs of the crime of forcing a woman to have an artificial abortion are analyzed based on the opinions of criminal law experts. The author approached the opinions of these scholars scientifically and highlighted their opinions based on scientific analysis. In addition, the article also touches upon aspects related to some other similar crimes of Article 115 of the Criminal Code, which establishes liability for forcing a woman to have an artificial abortion. In addition, the article also touches on aspects related to some other similar crimes of Article 115 of the Civil Code, which provides for liability for forcing a woman to have an abortion. The term “forcing” in the crime of forcing a woman to have an artificial abortion is understood as a method of committing the objective side of the crime in 8 crimes of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. A comparative analysis of crimes related to the forced abortion of a woman was also conducted based on the legislation of Spain, Morocco, Poland, Latvia, Lithuania, Turkey, Belgium, and other foreign countries. The article analyzes the statistics of crimes involving forcing a woman to have an abortion for 2014-2022, as well as the sentences studied in connection with the study. The author provides scientifically based conclusions and proposals for improving legal norms that provide for liability for the crime of forcing a woman to have an artificial abortion.*

Keywords: *crime, liability, fetus, coercion, health, injury, qualification, life, victim, mental, physical, artificial, legal, coercion.*

Kirish

Barchamizga ma'lumki, ona o'z farzandiga kuchli mehr rishtalari bilan bog'langan bo'ladi, bu rishtalarning ayolning xohishsiz uzib tashlanishi uning ruhiyatida iz qoldirishi tabiiy. Shu bois ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatining ijtimoiy xavfliligi uning salbiy oqibatlarida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlardan biri hisoblanadi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashning ijtimoiy xavfliligi uning huquqqa xilof ekanligi, majburlovchi xususiyatga egaligi, ayol irodasini cheklashi, qasddan sodir etilishi, ayolni o'z manfaatlari yo'lida harakat qilishga majburlash, ayol sog'lig'iga, tanlov erkinligiga tajovuz qilish bilan ham baholanadi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashning ijtimoiy xavfliligini yana shu bilan ham izohlash mumkinki, ushbu harakat natijasida ayolning ruhiyatida jiddiy salbiy o'zgarishlar yuz berishi mumkin, sog'lig'iga shikast yetishi, kelgusida farzand ko'ra olmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga T.V. Kondrashova ta'kidlaganidek, “ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda ayolning tanlov erkinligiga tajovuz qilinadi, sun'iy ravishda homila tushirishni ixtiyoriy tanlash huquqi buziladi” [1, 2].

Y.F. Mashtalarning yozishicha, “ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash aholi salomatligining umumiy darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ona va

bola sog'lig'ining muhofazasini kamaytiradi, jamiyatda demografik vaziyatga putur yetkazadi" [3].

Ushbu jinoyatning sodir etilishi statistikasini tahlil qiladigan bo'lsak, jinoyatning kamayish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Xususan, mamlakatimizda ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash bo'yicha:

- 2014-yilda – 3 ta (6 nafar shaxs);
- 2015-yilda – 3 ta (7 nafar shaxs);
- 2016-yilda – 4 ta (4 nafar shaxs);
- 2017-yilda – 6 ta (6 nafar shaxs);
- 2018-yilda – 5 ta (5 nafar shaxs);
- 2019-yilda ish ko'rilmagan;
- 2020-yilda – 1 ta (1 nafar shaxs);
- 2021-yilda ish ko'rilmagan;
- 2022-yilda – 1 ta (4 nafar shaxs) jinoyat sodir etilgan.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda jinoyatning obyektini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Jinoiy tajovuz obyektini to'g'ri tavsiflash muayyan turdagi jinoyatlarning mohiyatini yoritish, ularning ijtimoiy xavflilik xususiyatini ko'rsatish imkoniyatini beradi, shuningdek, aniq jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyat obyekti tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabatlarning jinoyat huquqi bilan muhofaza qilinadigan majmuidir [4–6]. Adabiyotlarda yetarli e'tibor berilmaganligi tufayli ham ushbu muammo hanuzgacha o'zining to'laqonli yechimini topmaganligini qayd etish lozim.

Mazkur muammoning ba'zi bir jihatlariga berilgan tavsiflarda qarama-qarshiliklar kuzatiladi, ilgari surilgan fikrlar esa aksariyat hollarda umumiy xususiyat kasb etadi. Holbuki, ushbu qilmish uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalari va ularning qo'llanish amaliyotini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish uchun aynan jinoyat obyektini to'g'ri aniqlash birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Material va metodlar

Tadqiqotda Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan "Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash" masalalari bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatining obyekti o'ziga xos xususiyatga ega. Bu borada M.H. Rustamboyev ta'kidlaganidek, ushbu jinoyatning obyekti "homilador ayolning hayoti va (yoki) sog'lig'ining xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar" [7] hisoblanadi.

Homilani sun'iy ravishda tushirishga majburlashda ayolning reproduktiv tanlov erkinligiga tajovuz qilinadi. Bunda majburlashning asosiy xususiyati shundaki,

homilador ayolning iroda erkinligi to'liq inkor etilmaydi, balki jabrlanuvchining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklanadi, majburlanayotgan sharoitda homilador ayol o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlikdan rozi bo'ladi.

Homilador ayolning irodasi erkinligi deganda uning homilani dunyoga keltirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish, reproduktiv tanlovni erkin amalga oshirish qobiliyatini tushunish mumkin. Majburlash natijasida ayolga tashqaridan bosim bo'lishi natijasida u farzandini dunyoga keltirish masalasida erkin qaror qabul qila olmaydi.

Boshqacha aytganda, majburlash orqali homilador ayolning iroda erkinligi, ya'ni harakat qilish uchun tanlov imkoniyati cheklanadi. Natijada homilador ayol farzandini dunyoga keltirish borasida o'zi erkin qaror qabul qila olmaydi, aybdor shaxsning talabi bo'yicha ish tutishga majbur bo'ladi.

Homilador ayolda ichki irodaviy qarama-qarshilik yuzaga kelib, uning ichki his-tuyg'ularidan kelib chiqqan holda mustaqil qaror qabul qilish erkinligi bostiriladi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyati obyektiv tomondan majburlash orqali sodir etiladi.

Jinoyat huquqida "majburlash" deganda jabrlanuvchining u yoki bu harakatga roziligini olish maqsadida unga ruhiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish tushuniladi.

Jismoniy ta'sir ko'rsatish do'pposlash, uning yoki yaqinlarining sog'lig'iga zarar yetkazish kabilarda, ruhiy ta'sir ko'rsatish esa qo'rqitish, tahdid qilish, o'ziga yoki yaqinlariga zarar yetkazishga va'da qilish, tovlamachilik qilish singari xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi.

Ruhiy ta'sir ko'rsatish aniq, yaqqol ifodalanmay, bevosita aybdor shaxsning xatti-harakatlaridan kelib chiqishi ham mumkin. Ruhiy ta'sir ko'rsatish erkakning ayolga nisbatan moliyaviy yordam ko'rsatmaslik, tashlab ketish, uydan haydab yuborish bilan qo'rqitishida ham namoyon bo'lishi kuzatiladi. Ko'p hollarda homilador ayol erkakka moddiy yoki boshqacha tarzda qaram bo'lganligi sababli uning talablariga bo'ysunishga majbur bo'ladi.

Majburlash O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 8 ta jinoyat tarkibida jinoyat obyektiv tomonini sodir etish usuli sifatida nazarda tutilgan (JK 115-, 115¹-, 127¹-, 135-, 145-, 148²-, 149- va 192¹-moddalarini).

Ushbu jinoyat tarkiblarida o'z mol-mulkiga bo'lgan huquqidan voz kechishga majburlash (JK 192¹-moddasi), hammualliflikka majburlash (JK 149-moddasi), mehnatga ma'muriy tarzda majburlash (JK 148²-moddasi), giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga majburlash (JK 127¹-moddasi), insonni undan a'zolarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash (JK 115¹-moddasi), diniy faoliyatga majburlash (JK 145-moddasi) kabilar nazarda tutilgan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, JKda majburlash ko'proq ruhiy bosim o'tkazishga qaratilgan xatti-harakatlarni nazarda tutadi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash uchun javobgarlik belgilangan JK 115-moddasi ham ayrim boshqa jinoyatlar bilan bog'liq jihatlariga ega.

Avvalambor, JK 115-moddasida shaxs homilani qonuniy asoslarda sun'iy ravishda tushirishga majburlashi lozim bo'ladi, aksincha bo'lsa, ya'ni ayblanuvchi homilador



ayolni jinoiy ravishda (tibbiy nuqtayi nazardan mumkin bo'lmagan holatda davolash muassasasidan tashqarida yoki sun'iy ravishda homila tushirishga huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan) homila tushirishga majburlasa, shaxsning harakatlari ishtirokchi sifatida qo'shimcha ravishda JK 114-moddasi bilan ham malakalanadi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda majburlov usullari ham jinoyatni boshqa moddalar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish zaruratini vujudga keltirishi mumkin.

Basharti ayblanuvchi homilador ayolni sun'iy ravishda homilani tushirishga majburlash uchun o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitsa, uning qilmishi JK 112-va 115-moddalari majmui bilan, sog'lig'iga tan jarohati yetkazsa, tegishlicha JK 104-, 105-, 109- yoki 126¹-moddalari bilan malakalanishi lozim bo'ladi.

Yoxud homilador ayol tanasining va (yoki) jinsiy a'zolarining yalang'och holdagi foto- va (yoki) videotasvirini o'z ichiga olgan axborotni tarqatish bilan qo'rqitsa, qilmish qo'shimcha ravishda JK 141³-moddasi bilan ham kvalifikatsiya qilinishi lozim bo'ladi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatini tamom bo'lgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish uchun homila sun'iy tushirilgan bo'lishi talab etiladi. Ya'ni jinoyat moddiy tarkibli bo'ladi va homila tushishi tarzidagi oqibat kelib chiqqan vaqtdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Shu bilan birga, sud-tergov amaliyotida shaxs oilaviy yoki boshqa sabablarga ko'ra, homilador ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga ko'ndirishga harakat qilish holatlari uchraydi.

Huquqni qo'llash amaliyotida "ko'ndirish" va "majburlash" tushunchalarini farqlash lozim. Chunki ko'ndirishda shaxs homilador ayolga turli rag'bat, masalan, pul, tilla taqinchoq yoki qimmatbaho buyumlar, avtomashina yoki uy kabi boyliklarni va'da qilib, evaziga homilasini tushirishni so'rashi mumkin. Bunday hollarda shaxsning harakatlarini "majburlash" sifatida baholab bo'lmaydi.

JK 115-moddasi talqinida majburlash homilador ayolning irodasiga majburlovchi ta'sir ko'rsatishni nazarda tutuvchi qo'rqitish, uydan haydab yuborish, moddiy yordamdan mahrum qilish, oziq-ovqatni cheklash yoxud ilgari kundalik (odatiy) bo'lgan imkoniyatlarni boshqacha tarzda cheklashni tushunish mumkin. Bunday majburlov shakllari "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan iqtisodiy (xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklash) va ruhiy (haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek, ularning xohish-irodasini cheklash) zo'ravonlik shakllari ko'rinishida ham bo'lishi mumkin.

Jinoyat ishlari tahlili ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (103-modda), nomusga tegish (118-modda), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda), qasddan odam o'ldirish (97-modda), qiynash (110-modda), o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (128-modda), tovlamachilik (165-modda) kabi jinoyatlar bilan birgalikda sodir etilganligini ko'rsatmoqda.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashga qaratilgan xatti-harakatlar homilador ayolning ota-onasi, yaqin qarindoshlari, bolaning otasi, turmush o'rtog'i va uning qarindoshlari (qaynona, qaynota, qaynsingil va b.), tibbiyot tashkilotlarining xodimlari yoki boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sud-tergov amaliyoti ham JK 115-moddasida nazarda tutilgan qilmishni sodir etgan jinoyat subyekti va jabrlanuvchisi o'rtasida qarindosh-urug'chilik, tanish-bilishchilik munosabatlari borligini ko'rsatdi.

Xususan, tadqiqot ishi bo'yicha o'rganilgan 30 ta jinoyat ishi quyidagicha, ya'ni:

– sudlanuvchi jabrlanuvchi bilan nikohsiz muntazam jinsiy aloqada bo'lib kelgan tanishi – 53 foiz;

– sudlanuvchining turmush o'rtog'i yoki shar'iy nikoh asosida birgalikda istiqomat qilayotgan shaxs – 33 foiz;

– jabrlanuvchining otasi, o'qituvchisi yoki qo'shnisi – 14 foiz bo'lgan.

“Har qanday majburlov maqsadi muayyan xulq-atvor yoki undan voz kechish bo'lgani kabi, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash ham o'zining yakuniy maqsadi sifatida ayol tomonidan o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishni ko'zlagan xatti-harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan” [8].

Bunda homilani sun'iy ravishda tushirish qonuniy bo'lishi lozim bo'ladi, aks holda, shaxs ayolni jinoiy ravishda homila tushirishga majburlasa, shaxsning harakatlari qo'shimcha ravishda JK 114-moddasi bilan ham malakalanadi.

T.Y. Kobozeva ta'kidlaganidek, “jinoiy majburlov – shaxsga uning shaxsiy xohishiga qarshi, majburlayotgan shaxs yoki u manfaatlarini ifodalayotgan shaxs manfaatlari uchun harakat (harakatsizlik) sodir etishga majburlash maqsadida qasddan uning iroda erkinligini cheklovchi, huquqqa xilof jismoniy yoki (va) ruhiy ta'sir ko'rsatishdir” [9].

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash uchun quyidagilar xos:

- homilador ayolning iroda erkinligiga maqsadli ta'sir ko'rsatish;
- ta'sir ko'rsatishning majburlovchi xususiyatga egaligi;
- majburlashning huquqqa xilof talab sifatida namoyon bo'lishi.

Ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlashda qo'llanadigan zo'rlik quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- 1) zo'rlik jinoyatning maqsadi bo'lishi kerak emas;
- 2) zo'rlik jabrlanuvchi tomonidan anglashilishi lozim;
- 3) zo'rlik homilasini sun'iy ravishda tushirish talabi bilan mustahkamlanishi zarur.

“Majburlash o'z tabiatiga ko'ra homilador ayolning irodasiga ta'sir ko'rsatish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Majburlashning o'ziga xosligi homilador ayolning irodasiga ta'sir ko'rsatish mexanizmi va xususiyatida aks etadi. Bunda majburlash irodani cheklashga qaratilgan maqsadli xatti-harakatlarda ifodalanadi” [10].

JK 115-moddasida qo'llanadigan majburlashda aybdor shaxs ayoldan o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishni talab qiladi, shu bois ham ushbu talabdagi homilani sun'iy ravishda tushirish bo'yicha talab homilador ayol e'tiboriga yetkazilishi va u tomonidan

anglashilishi lozim. Majburlash hamisha homilador ayolning irodasiga qarshi sodir etiladi.

“Shu bilan birga, majburlashda jabrlanuvchi tomonidan o‘z harakatini amalga oshirish imkoniyati to‘liq cheklanmaydi, balki saqlanib qoladi” [11]. Ya‘ni jabrlanuvchida o‘z harakatlari rahbarlik qilish va oxir-oqibatda yakuniy qarorni qabul qilish imkoniyati saqlanib qoladi.

Ta‘kidlash lozimki, majburlash hamisha ham ochiqdan ochiq zo‘ravonlik bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin, masalan, ko‘ndirish, iltimos qilish, ishontirish orqali ham ayol o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlanishi mumkin.

“Biroq ushbu harakatlar natijasida homilador ayolning irodasi o‘zgaradi, bu esa majburlovning mohiyatiga zid keladi. Bunday holatda agar majburlovchi ta‘sir ko‘rsatish ayolning huquqlarini cheklash, kamsitish, zo‘rlik ishlatish bilan bog‘liq bo‘lmasa, unda jinoyat tarkibi bo‘lmaydi” [12].

Y.F. Mashtaler “Ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash unga yoki yaqinlariga zo‘rlik ishlatish, ularning mulkini yo‘q qilish yoki shikast yetkazish, tuhmat ma‘lumotlarni tarqatish, jabrlanuvchi sir saqlamoqchi bo‘lgan ma‘lumotni barchaga oshkor qilish, ularning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga putur yetkazish bilan qo‘rqitish orqali sodir etiladi” [3], – deb yozadi.

Jinoyat ishi materiallari tahlil qilinganda, qo‘rqitish boshqa farzandidan voz kechish, turmushini bekor qilish, uylanmaslik bilan tahdid qilish orqali amalga oshirilganligiga guvoh bo‘ldik.

Majburlash, shuningdek, homilani tushiruvchi dorini majburlab qabul qildirish, homilador ayolning qorin qismiga zarba berish kabi jismoniy zo‘rlik ishlatish orqali ham sodir etilgan.

JK 115-moddasida obyektiv tomondan sodir etish usuli sifatida faqatgina majburlash nazarda tutilgan. Biroq amaliyotda homilani sun‘iy ravishda tushirish nafaqat majburlov, balki aldash yo‘li bilan ham sodir etilishi mumkin. Ta‘kidlash lozimki, sud amaliyotida aldash orqali jabrlanuvchini ko‘ndirish majburlov sifatida kvalifikatsiya qilinmoqda.

Masalan, jinoyat ishlari bo‘yicha Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani sudida 2022-yil 1-avgustda ko‘rilgan sud ishida jabrlanuvchi E.ga homilani sun‘iy ravishda tushiradigan dorini “Coca-Cola” ichimligiga qo‘shib berib, aldov yo‘li bilan ichirilgan [13].

Yoki jinoyat ishlari bo‘yicha Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani sudi tomonidan 2018-yil 12-iyulda ko‘rib chiqilgan jinoyat ishida ayblanuvchining jabrlanuvchini “senga uylanaman” deb aldab, uni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlagani ham JK 115-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos bo‘lgan [14].

Fikrimizcha, bunday yondashuv amaldagi JK 115-moddasi konstruksiyasiga mos kelmaydi, biroq mantiqiy asosga ega, hozirgi vaqtda sud amaliyotida zarurati bor, deb hisoblaymiz. Shu maqsadda JK 115-moddasida jinoyatni sodir etish usuli sifatida “aldashni” ham kiritish maqsadga muvofiq.

Ta‘kidlash lozimki, homilador ayolni sun‘iy ravishda homila tushirishga majburlash o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etilsa, aybdor shaxsning harakatlari JK 112- va 115-moddalari majmui bilan malakalanishi lozim bo‘ladi.

Shuningdek, homilador ayolni unga sun'iy abortga olib keluvchi dori berib sun'iy ravishda homila tushirishga majburlashga qaratilgan harakatlar JK 114- va 115-moddalari majmui bilan malakalanishi lozim bo'ladi.

Masalan, Namangan viloyati Chust tumani sudida 2018-yil 10-mayda ko'rilgan sud ishi bo'yicha sudlanuvchi A. turmush o'rtog'i M.ni majburlab, dori ichish yo'li bilan homilasini tushirgan va uning harakatlari JK 114-moddasi 2-qismi hamda 115-moddasi bilan aybli deb topilgan [15].

Shuni ta'kidlash kerakki, hayot yoki sog'liq uchun xavfli jami 7 ta jinoyatdan 6 tasida og'irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan. Lekin aynan JK 115-moddasida (ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash) og'irlashtiruvchi holat nazarda tutilmagan.

Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar jinoyatning ijtimoiy munosabatlarga yetkazadigan zarari yoki shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi, jabrlanuvchining jinoyatchi bilan munosabatlarining o'ziga xosligidan kelib chiquvchi unga nisbatan qarshilik ko'rsatish imkoniyati cheklanganligi kabi omillar bilan bog'liq hisoblanadi.

Sud amaliyotida ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash natijasida og'ir oqibatlar kelib chiqishi holatlari mavjud. Masalan, jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi o'z joniga qasd qilganligi, farzand ko'rish qobiliyati yo'qotilganligi, ruhiy kasallikka chalinganligi, sog'lig'iga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilganligi kabi holatlar aniqlangan.

Shularni inobatga olgan holda JK 115-moddasi ikkinchi qismida ushbu harakatlarning "og'ir oqibatlarga sabab bo'lishi" uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatlari xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida qiyosiy tahlil qilinganda, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash jinoyati ko'p davlatlar jinoyat qonunlarida nazarda tutilmagan. Bunday amaliyot mavjud davlatlar sifatida Ispaniya, Marokash, Polsha, Latviya, Litva, Turkiya, Belgiya kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin.

Masalan, Ispaniya JK 144-moddasida zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki aldash yo'li bilan homilador ayolni abort qilishga ko'ndirish uchun javobgarlik belgilangan [16]. Bunda jinoiy javobgarlik kelib chiqishi uchun abortning amalga oshirilganligi ahamiyatga ega emas (homilaning tushirilganligi O'zR JK 115-moddasi obyektiv tomonining zaruriy sharti hisoblanadi).

Latviya JK 136-moddasida ham homilador ayolni abort qilishga majburlash, basharti buning natijasida abort amalga oshirilsa, 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki majburiy jamoat ishlari, yoki eng kam oylik ish haqining 40 baravari miqdorida jarima bilan jazolanadi [17]. Latviya JKda ham ushbu jinoyatni tugallangan deb hisoblash uchun O'zR JK 115-moddasidagi kabi abortning amalga oshirilishi (homila sun'iy tushirilishi) talab qilinadi.

Yoki Litva JK 143-moddasida qayd etilishicha, "kimda-kim jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatib, ayolni noqonuniy abortga majburlasa, 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki ozodlikni cheklash yoxud majburiy jamoat ishlariga hukm etiladi" [8].



Polsha JK 153-moddasida esa noqonuniy abort va abortga majburlash yagona dispozitsiyada bayon etilgan: “Kimda-kim homilador ayolga zoʻrlik ishlatib yoki uning rozilgisiz boshqacha usulda homilani tushirsa yoxud zoʻrlik, huquqqa xilof tahdid yoki aldov yoʻli bilan ayolni homilani tushirishga majburlasa, 6 oydan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi” [18].

Taʼkidlash lozimki, Polsha JKda Ispaniya JK kabi abortga majburlashning obyektiv tomoni kengroq, ushbu harakatlarni aldash yoʻli bilan amalga oshirish ham jinoiy jazolanishi nazarda tutilgan.

MDH davlatlari jinoiyat qonunlari tahlili shuni koʻrsatdiki, ushbu jinoiyat uchun javobgarlik alohida mustaqil moddada faqatgina Oʻzbekiston va Tojikiston JKda nazarda tutilgan. Xususan, Tojikiston JK 124-moddasida ham ayolni abort qilishga majburlaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan boʻlib, unga koʻra, ayolni abort qilishga majburlashda, basharti buning natijasida abort qilingan boʻlsa, aybdor 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki shu muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Shu bilan birga, ayrim davlatlarda ayolni oʻz homilasini sunʼiy ravishda tushirishga majburlash noqonuniy abort uchun jinoiy javobgarlik belgilangan maxsus moddada alohida qism sifatida nazarda tutilgan. Masalan, Ukraina JKning “Noqonuniy abort yoki sterilizatsiya” deb nomlangan 134-moddasining ikkinchi qismida jabrlanuvchining ixtiyoriy rozilgisiz abortga majburlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Xuddi shunday Turkiya JKda ham abortning obyektiv tomonini amalga oshirishda bevosita ishtirok etganlik, shuningdek, ayolni abort qilishga undaganlik (469-modda) uchun ham jinoiy javobgarlik yagona moddada belgilangan.

Bizning fikrimizcha, ayolni oʻz homilasini sunʼiy ravishda tushirishga majburlash hamda noqonuniy abort obyektiv tomoni va obyektiga koʻra mustaqil jinoiyat tarkiblari boʻlib, ularni yagona moddada birlashtirish toʻgʻri emas.

Ispaniyada esa ayolni qoʻrqitish, zoʻrlik ishlatish yoki aldov yoʻli bilan sunʼiy ravishda homilani tushirishga koʻndirganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan. Ayolning abortga roziligi ixtiyoriy deb hisoblanishi uchun unga ushbu masalada qaror qabul qilish jarayonida tashqaridan majburlovchi taʼsir koʻrsatilmaganligi muhim. “Qaror qabul qilishda majburlov shakli turlicha boʻlishi mumkin, bunda asosiysi, uning harakatlari jabrlanuvchiga, uning yaqinlariga nisbatan zoʻrlik ishlatish yoki bunday zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitish, mol-mulkini nobud qilish yoki shikast yetkazish, tuhmat qilish, jabrlanuvchi oshkor etishni istamagan maʼlumotni tarqatish bilan qoʻrqitish, ushbu shaxslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini kamsitishga qaratilgan boʻlishi kerak” [19].

Xulosalar

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini hamda amaliyot materiallarini tahlil qilish asosida ayolni oʻz homilasini sunʼiy ravishda tushirishga majburlash muammosini har tomonlama tartibga solish va kelgusi faoliyatda bunday xatolarga yoʻl qoʻyilishining oldini olish uchun jinoiyat qonunini takomillashtirish boʻyicha JK 115-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“115-modda. Ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga aldash yoki majburlash

Ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga aldash yoki majburlash, agar homila sun‘iy tushirilgan bo‘lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa;

b) moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan;

v) boshqacha og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, –

ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Mazkur bildirilgan takliflarning amalga oshirilishi ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatini to‘liq tavsiflash, ularning ijtimoiy xavflilik xususiyatini to‘liq ko‘rsatish, shuningdek, ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash jinoyatlarini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Kondrashova T.V. Problemy ugolovnoy otvetstvennosti za prestupleniya protiv zhizni, zdorov'ya, polovoy svobody i polovoy neprikosnovennosti [Problems of criminal liability for crimes against life, health, sexual freedom and sexual integrity]. Ekaterinburg, 2000, p. 256.

2. Radchenko M.V. Nenadlezhashcheye vrachevaniye v reproduktivnoy sfere: ugolovno-pravovoy aspekt [Inappropriate medical treatment in the reproductive sphere: criminal legal aspect]. Ekaterinburg, 2002, p. 142.

3. Mashtaler Yu.F. Prinuzhdeniye k proizvodstvu aborta po ugolovnomu zakonodatel'stvu Respubliki Belarus [Coercion to perform an abortion under the criminal legislation of the Republic of Belarus]. *Problems of fighting crime and training personnel for law enforcement agencies: Proceedings of the International scientific-practical conf.* Minsk, Academy of the Ministry of Foreign Affairs of Belarus, 2021, p. 175.

4. Novosyolov G.P. Ucheniye ob ob'yekte prestupleniya [The doctrine of the object of crime]. Moscow, 2001, p. 208.

5. Semchenkov I.P. Ob'yekt prestupleniya: sotsial'no-filosofskiye i metodologicheskiye aspekty problemy [Object of the crime: social-philosophical and methodological aspects of the problem]. Moscow, 2003.



6. Demidov L.M., Lukin R.N. Ob"yekt i predmet prestupleniya po ugovnomu pravu Rossii: aktual'nyye problemy [The object and subject of the crime under Russian criminal law: current problems]. St. Petersburg, 2004, p. 27.

7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Public Security University, 2021, special part, vol. 2, p. 111.

8. Mustafayev S.Ye. Ugolovno-nakazuyemoye preryvaniye beremennosti problemnyye aspekty ugolovnog zakonodatel'stva [Criminally punishable termination of pregnancy problematic aspects of criminal legislation]. *Bulletin of Moscow University*, 2015, no. 1, pp. 111–112.

9. Kobozeva T.Yu. Kategoriya prinuzhdeniye v ugolovnom prave Rossii [Category coercion in Russian criminal law]. *Bulletin of Voronezh State University*, 2008, no. 1/4, pp. 22–23.

10. Kobozeva T.Yu. Prestupnoye prinuzhdeniye kak ugolovno-pravovaya kategoriya [Criminal coercion as a criminal legal category]. Moscow, 2011, pp. 10–11.

11. Kobozeva T.Yu. Vidy i osnovnyye sposoby prinuzhdeniya v ugolovnom prave [Types and main methods of coercion in criminal law]. *Judicial Authority in the Penza Region*, 2008, no. 5, pp. 31–32.

12. Kobozeva T.Yu. Prinuzhdeniye kak priznak obyektivnoy storony sostava prestupleniya [Coercion as a sign of the objective side of a crime]. *Gaps in Russian Legislation*, 2008, no. 2, pp. 22–23.

13. Criminal case no. 1-1807-2201/2 heard on August 1, 2022 by the Kasbi District Criminal Court.

14. Criminal case No. 1-1908-1801/55 considered by the Kumkurgan District Court on July 12, 2018.

15. Criminal case No. 10 1-1611-1802/84 heard on May 10, 2018 in Chust district court of Namangan region.

16. Spain Criminal Code. *Official State Gazette*, 1995, no. 281.

17. The Criminal Law, Riga, 1998, Art. 136. Available at: unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/UNTC/UNPAN018405.pdf

18. Rashidov Sh.M. Osobennosti ugolovnoy otvetstvennosti za kriminalnyye aborty po ugovnomu zakonodatelstvu Rossiyskoy Federatsii i nekotorykh zarubezhnykh stran [Peculiarities of criminal liability for criminal abortions under the criminal legislation of the Russian Federation and some foreign countries]. *Current Problems of Russian Law*, 2011, no. 1, pp. 223–224.

19. Trofimova D.A. Sostavy meditsinskikh prestupleniy po ugovnomu zakonodatel'stvu Respubliki Belarus [Compositions of "medical crimes" according to the criminal legislation of the Republic of Belarus]. *Electronic Collection Of Works of Young Specialists of Polo State University*, 2019, no. 27, p. 126.

Kelib tushgan / Получено / Received: 21.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 110.51788/tsul.ccj.4.3./ALRT9967

UDC: 343.236.1(045)(575.1)

TAMOM BO'LGAN VA TAMOM BO'LMAGAN SUIQASD

Kamalova Dildora Gayratovna,

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani

ORCID: 0000-0001-6747-8883

e-mail: d.kamalova@tsul.uz

Annotatsiya. Jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish tamom bo'lmagan jinoyat turi bo'lib, jinoyatni sodir etish boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan obyektgа tajovuz amalga oshirilib, zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish xavfi yuzaga keladi. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichida muayyan jinoyat ob'ektiv tomonining bir qismi bajariladi, ya'ni JK Maxsus qismi dispozitsiyasida ifodalangan harakat yoki harakatsizlik to'liq yoki qisman amalga oshiriladi, biroq shaxs istaganidek natija yuz bermaydi. Jinoyat huquqi doktrinasida suiqasd tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan turlarga ajratiladi. Mazkur bo'linishning mezonlari, huquqiy ahamiyati, o'zaro farqli jihatlari yetarli darajada tahlil qilinmagan. Mazkur maqolada tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasdning huquqiy tabiati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan hamda muallifning mazkur masala bo'yicha xulosasi shakllantirilgan. Tamom bo'lgan jinoyat tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd kabi birikmalarni qo'llashda tushunmovchiliklarning oldini olish, qonun texnikasi talablariga rioya etish, so'zlarni o'z ma'nosida ishlatish va jinoyat sodir etish bosqichlari institutining o'zaro bog'liqligidan kelib chiqqan holda suiqasd turlarini "yakunlanmagan suiqasd" va "yakunlangan suiqasd" sifatida qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan. Shuningdek, tamom bo'lmagan va tamom bo'lgan suiqasdning ijtimoiy xavflilik xususiyati o'zaro farqlanishi sababli jazo tayinlashda differentsiatsiya qilinishi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatga suiqasd qilish, jinoyatga suiqasd turlari, tamom bo'lgan suiqasd, tamom bo'lmagan suiqasd, ob'ektiv mezon, sub'yektiv mezon, kvalifikatsiya

ОКОНЧЕННОЕ И НЕОКОНЧЕННОЕ ПОКУШЕНИЕ

Камалова Дилдора Гайратовна,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

декан факультета уголовного правосудия

Ташкентского государственного юридического университета



Аннотация. Покушение на совершение преступления является видом неоконченного преступления и характерно тем, что преступное деяние уже начато: совершается посягательство на объект, охраняемый уголовным законом, причиняется ущерб или создаётся угроза его причинения. На стадии покушения на совершение преступления выполняется часть объективной стороны конкретного преступления, т. е. действие или бездействие, выраженное в диспозиции Особенной части Уголовного кодекса, осуществляется полностью или частично, но желаемый преступный результат не наступает. В доктрине уголовного права покушения классифицируются на оконченные и неоконченные. Однако критерии этой классификации, её юридическое значение и отличительные признаки недостаточно проанализированы. В данной статье проводится научно-теоретический и практический анализ правовой природы оконченного и неоконченного покушения, и автор формулирует выводы по этому вопросу. Для предотвращения недоразумений при употреблении таких понятий, как оконченное преступление, оконченное и неоконченное покушение, в целях соблюдения требований юридической техники, применения слов в их правильном значении и исходя из взаимосвязи института стадий совершения преступления была обоснована целесообразность применения терминов «завершённое покушение» и «незавершённое покушение». Также предложено дифференцировать наказание, учитывая различие в характере общественной опасности неоконченного и оконченного покушения.

Ключевые слова: покушение на преступление, виды покушения на преступление, оконченное покушение, неоконченное покушение, объективные критерии, субъективные критерии, квалификация.

COMPLETED AND INCOMPLETE ATTEMPTS

Kamalova Dildora Gayratovna,
Dean of the Faculty of Criminal Justice,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. An attempt to commit a crime is a type of incomplete crime characterized by the initiation of the criminal act. An assault is committed on an object protected by criminal law, causing harm or creating a risk of harm. At the stage of attempting to commit a crime, part of the objective side of a specific crime is carried out, meaning that the action or inaction expressed in the disposition of the Special Part of the Criminal Code is fully or partially implemented, but the desired criminal outcome does not occur. In criminal law doctrine, attempts are classified into completed and incomplete types. The criteria, legal significance, and differences in this classification have not been sufficiently analyzed. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the legal nature of completed and incomplete attempts, and the author forms conclusions on this issue. To prevent misunderstandings when using terms such

as a completed crime and uncompleted attempts, to adhere to the requirements of legal technique, and based on the interconnection of the stages of committing a crime, it has been justified that it is appropriate to apply the types of attempts as “unfinished attempt” and “finished attempt.” It is also proposed to differentiate the nature of the social danger of an uncompleted attempt and a completed attempt in the imposition of punishment.

Keywords: *criminal attempt, types of criminal attempt, completed attempt, incomplete attempt, objective criteria, subjective criteria, qualification.*

Kirish

JK 58-m. Sud tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qilgan holda jinoyatning og'ir-yengilligini, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasini va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablarini ham hisobga oladi.

Jinoyatga suiqasd qilishning turlarga ajratilishi ahamiyati, qilmishni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashga ta'siri yuzasidan bildirilgan fikrlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruh vakillari suiqasd turlarining ahamiyatini inkor etib, quyidagicha asoslantiradi: tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd jinoyatni amalga oshirishga qaratilgan o'zaro bog'liq va yagona qilmish hisoblanadi [1, 267-b.]; “qilmishni kvalifikatsiya qilishda suiqasdning turlarga ajratilishi ahamiyatsiz, biroq jazoni individuallashtirishda muhim omil hisoblanadi, shuning uchun jinoyat qonunida suiqasd turlari farqlanmaydi [2, 289-b.]”.

Ikkinchi guruh vakillari jinoyatga suiqasdni turlarga ajratishning ahamiyatini quyidagi omillar bilan bog'laydi: “1) faqat tamom bo'lmagan suiqasd va jinoyatga tayyorgarlik ko'rishdan ixtiyoriy qaytish mumkinligi tufayli suiqasdni turlarga ajratish huquqiy ahamiyatga ega” [3, 108-b.]; 2) “tamom bo'lgan suiqasd odatda tamom bo'lmagan suiqasdga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lib, tamom bo'lgan jinoyatga nisbatan juda yaqin bosqich hisoblanadi, shunga muvofiq, qattiqroq jazolanishi lozim” [4, 51-52-b.]; 3) “suqasd tasnifning mavjudligi jazo tayinlashda jinoiy niyatni amalga oshirganlik darajasini hisobga olish hamda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish masalasini hal qilish zarurati bilan bog'liq [5, 226-b.]. Biz bu fikrlarga qo'shilgan holda, quyidagilarini qo'shimcha qilamiz: 4) yaroqsiz suiqasd qilmishni kvalifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ayrim hollarda yaroqsiz suiqasd uchun javobgarlik kelib chiqmasligi lozim; 5) suiqasd turlari shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini ifoda etadi, jumladan, tamom bo'lmagan suiqasdda jinoyatning yakunlamaganligi shaxs xatti-harakatlarining natijasi hisoblanadi, shuning uchun jinoyatni oxiriga yetkazilmaslik sabablari inobatga olinib, JK Maxsus qismi sanksiyasida nazarda tutilgan yengilroq jazo tayinlanishi maqsadga muvofiq.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqoladagi mavzuni tadqiq etishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, tarixiylik, mantiqiylik kabi tadqiqot usullari qo'llangan.

Mazkur mavzu yuzasidan o'zbek olimlaridan M.X. Rustamboyev, A.A. Otajonov, N.S. Salayev; X.R. Ochilov, R. Kabulov; xorijiy olimlardan A.P. Kozlov, A.I. Sitnikova, A.A. Anisimov, L.Z. Tadevosyan, D.Y. Porotikov, A.Y. Reshetnikovlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat huquqi ta'limotida jinoyatga suiqasd qilishning turlarga ajratish mezonlari to'g'risida yagona yondashuv mavjud emas. Mazkur masalaga subyektiv mezon, obyektiv mezon yoki aralash mezon asosida yondashiladi. Shuningdek, jinoiy maqsadning tugallanganlik darajasi haqidagi subyektiv tasavvuri [5, 225-b.], aybdor tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning yakuniga yetkazilganlik darajasi [6, 228-b.], suiqasdni amalga oshirilganlik darajasiga [7, 53-b.] ko'ra, suiqasd tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan turlarga bo'linishi yuzasidan qarashlar mavjud.

Subyektiv mezonga (N.S. Salayev, M. Usmonaliyev, A.I. Orlova) [8, 182-b; 9, 88-b.; 10, 262-b.] ko'ra, jinoiy harakatlarning tugallanganlik darajasi aybdorning fikriga ko'ra belgilanadi va uning xatti-harakatlari natijasida oxirigacha yetkazilmaydi (jumladan, shaxsning tajribasizligi, puxta reja tuzmaganligi, jinoyat quroli tekshirilmaganligi, atrof-muhitni yaxshi o'rganmaganligi, jinoyat haqida yetarli ma'lumotlarga ega bo'lmaganligi).

Obyektiv mezonga (B.V. Zdravomislov, D.Y. Porotikov) [11, 153-b.; 12, 39-b.] va harakatlarning amalda tugallanganligiga ko'ra, JK Maxsus qismi dispozitsiyasidan kelib chiqib, suiqasd tamom bo'lmagan yoki tamom bo'lgan turlarga ajratiladi. Ya'ni qilmishning subyektiv jihatdan yo'naltirilganligi e'tiborga olinib, aybdor sodir etgan harakatlar hajmidan kelib chiqish zarur.

Aralash mezon (A.Y. Reshetnikova) [13, 39-b.] aybdor shaxs harakatlarining amalda tugallanganlik darajasi va mazkur harakatlar yuzasidan aybdor fikri o'zaro mos kelishi nazarda tutiladi.

Nazarimizda, tamom bo'lgan suiqasd va tamom bo'lmagan suiqasd turlariga ajratilishining mezoni subyekt tomonidan jinoiy natija yuz berishi uchun zarur harakatlarni amalga oshirilganligi hisoblanadi. Bunda shaxs xulq-atvorining tashqi tomoni emas, balki ichki – subyektiv tomon inobatga olinishi lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizningcha, jinoyatga suiqasd quyidagi mezonlar asosida guruhlashtirilishi maqsadga muvofiq:

Shaxsning subyektiv fikriga ko'ra tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd turlariga ajratiladi.

“Qilmish tamom bo'lgan suiqasd yoki tamom bo'lmagan suiqasdligini aniqlash uchun jinoiy faoliyatning real voqelikda rivojlanish darajasi emas, shaxs tomonidan jinoiy natijaga erishish uchun zarur hisoblangan barcha harakatlarning amalga oshirilganligi muhim hisoblanadi. Ya'ni mohiyatiga ko'ra tashqi – subyekt xulq-atvorining miqdoriy ko'rsatkichi emas, balki ichki subyektiv tomon muhim hisoblanadi” [14, 110-111-b.] Shunga ko'ra, tamom bo'lgan suiqasd tamom bo'lmagan suiqasddan subyektiv tomonga ko'ra farqlanadi.

1) Shaxs jinoiy maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan barcha harakat (harakatsizlik)ni amalga oshirgan, biroq jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmagan bo'lsa, qilmish tamom bo'lgan suiqaasd deyiladi [12, 188b.]. "Tamom bo'lgan suiqaasdda shaxs jinoyatni oxiriga yetkazish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha harakatlarni bajargan, jinoyatni oxiriga yetkazish uchun ana shu harakatlar yetarli va yana biron-bir qo'shimcha harakatlar bajarilishi shart emas, deb hisoblaydi. Ammo obyektiv sabablarga ko'ra, jinoyat oxirigacha yetkazilmaydi" [6, 11]. *A.A. o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida 2024-yil 15-mart kuni "Fayz Burger" nomli umumiy ovqatlanish joyi oldida S.X. va uning tanishi E.I.ga Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan haydovchilar uchun test topshirish markazida ishlovchi tanishlari orqali ikki nafar fuqaroni har biriga 1100 AQSh dollari evaziga hech qanday to'siqlarsiz haydovchilik guvohnomasi olib berishini va'da qilib, pora berishga dalolat qilgan. A.A. jami 2200 AQSh dollarini S.X.dan olgan vaqtida tezkor tadbirda ushlangan va firibgarlik harakatlari o'ziga bog'liq bo'lmagan holatda oxiriga yetkazilmagan* [15].

Ba'zi mualliflar tamom bo'lgan suiqaasdni va jinoyatdan ixtiyoriy qaytishni o'zaro farqlamagan holda ta'rif bergan. "Tamom bo'lgan suiqaasd deganda subyekt jinoyatni tugallash uchun zarur deb hisoblagan hamma xatti-harakatlarni bajargan, biroq unga bog'liq bo'lmagan holatlar yoxud jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish sababli jinoyat oxiriga yetkazilmagan holatlar tushuniladi. Shaxs jinoiy oqibatlarining yuzaga kelishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni bajargan bo'lib, biroq ixtiyoriy, masalan, sodir etgan qilmishidan pushaymon bo'lish, jabrlanuvchiga achinish, jinoiy javobgarlikka tortilish oqibatida ozodlikdan mahrum qilinishdan qo'rqish sababli avval istagan jinoiy qilmishi yuzaga kelishining oldini olish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solgan vaziyatda ham bu qilmish tamom bo'lgan suiqaasd deb e'tirof etilishi kerak" [5, 226-b.]. Nazarimizda, ixtiyoriy qaytishning suiqaasddan farqlovchi tomoni shundaki, jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmagan bo'lib, qilmish yoki tamom bo'lgan suiqaasd, yoxud ixtiyoriy qaytish sifatida baholanishi lozim. Jazoni yengillashtirish instituti, shu jumladan, jinoyat qonunining ortga qaytish kuchi, tamom bo'lmagan jinoyatlarning suiqaasd tarkibiga kirmaydi.

Demak, shaxs tomonidan jinoiy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan barcha harakat yoki harakatsizlik amalga oshirilgan, biroq shaxs istagan oqibat unga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuz bermagan bo'lsa, qilmish *tamom bo'lgan suiqaasd* deb topiladi.

"Tamom bo'lgan suiqaasd tamom bo'lgan jinoyatdan ijtimoiy xavfli oqibatning yuz bermaganligiga ko'ra farqlanadi. Mazkur oqibat, bir tomondan, suiqaasd qilayotgan shaxsning qasdi va maqsadi bilan qamrab olingan, ikkinchi tomondan, qonunda belgilangan shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra yuz bermagan tegishli oqibat bilan muvofiq kelishi lozim. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoki suiqaasd qilayotgan shaxs boshqa bir jinoyatni oxirigacha yetkazsa, shaxs o'sha jinoyat uchun ham javobgarlikka tortiladi. Bundan kelib chiqib, tamom bo'lgan suiqaasd faqat moddiy tarkibli jinoyatlarda yuz berishi mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Biroq formal tarkibli jinoyatlarda ham faqat ayrim hollarda tamom bo'lgan suiqaasd



mavjud bo'ladi. Bunda shaxs jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi barcha zarur chora-tadbirlarni bajarishi, biroq o'ziga bog'liq bo'lmagan hollarda ularni oxiriga yetkazmagan bo'ladi.

2) "Tamom bo'lmagan suiqasdda shaxs sodir etishni maqsad qilib qo'ygan qilmishning bir qismini bajaradi. Ya'ni subyektiv tomondan aybdor o'zi istagan jinoiy oqibat yuzaga kelishi uchun barcha qilmishlar yoxud ularning yig'indisi jinoyat huquqiga oid qilmishni tashkil etuvchi barcha xatti-harakatlarni amalga oshirmaganligini tan oladi. Tamom bo'lmagan suiqasdda aybdor nafaqat muayyan jinoyat tarkibidagi obyektiv tomonning barcha zaruriy alomatlarini bajarmaganligi, balki o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra o'zi xohlagan natijaga erisha olmaganligini anglashi ham xosdir" [5, 228-b.]. Boshqacha qilib aytganda, "tamom bo'lmagan suiqasdda jinoyatning yakunlanishi uchun zarur bo'lgan xatti-harakat ularni amalga oshirishga xalaqit bergan sabablar tufayli to'liq bajarilmaydi" [6, 228-b.]. *Sudlanuvchi A.N. tojik millatiga mansub tanishi Tohir ismli shaxs bilan oldindan kelishib, ijtimoiy tarmoq orqali u yuborgan manzil – Bo'ka tumanidan umumiy og'irligi 1967 grammni tashkil etgan gashish giyohvandlik vositasini 2 000 AQSh dollari evaziga Farg'ona viloyatidagi manzilga olib borishga kelishgan. 2023-yil 22-sentabrda A.N. giyohvandlik vositasini qo'lga kiritib, Farg'onaga olib ketayotgan vaqtda avtomashina YPX xodimlari tomonidan to'xtatiladi. A.N. avtomashinadan tushib, yo'l yoqasidagi daraxtzorga qarab qochgan vaqtida xodimlar tomonidan ushlangan va jinoyati o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan* [16].

"Tamom bo'lmagan suiqasdda shaxs JK Maxsus qismi tegishli moddasining dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etishga qaratilgan, uning ongi bilan qamrab olingan qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni qisman sodir etadi. Bunda aybdor shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra zarur bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) amalga oshirilmaydi va shunga muvofiq jinoyat yakunlanmaydi. Mazkur holatda aybdor jinoyatning tamom bo'lishi uchun barcha zarur harakatlarni sodir etmaganligini angelaydi" [14, 110-b.].

Nazarimizda, yuqoridagi ta'rifda tamom bo'lmagan suiqasd ham moddiy, ham formal tarkibli jinoyatlarga nisbatan amalga oshirilishi nazarda tutilmagan. Shuningdek, tamom bo'lmagan suiqasdda aybdor shaxs jinoyatning oxiriga yetkazilishi uchun barcha zarur harakatlarni amalga oshirganligini anglamaydi, balki shaxs jinoyatni yakunlashi uchun zarur bo'lgan qilmish unga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra sodir etilmaydi. Bunda shaxs tomonidan barcha zarur harakatlar amalga oshirilganligini anglash emas, balki shaxsning jinoiy qasdi oxirigacha yetkazilmaganligini anglash huquqiy ahamiyat kasb etadi.

M.P. Redin tamom bo'lmagan va tamom bo'lgan suiqasd tushunchalarini "to'liq bo'lmagan suiqasd" va "to'liq suiqasd" [1, 269-b.] tushunchalariga almashtirish taklifini ilgari surgan, binobarin, jinoyat sodir etishga suiqasdlar emas, balki faqat jinoyatlar tamom bo'lmagan yoki tamom bo'lgan deb tavsiflanishi lozim.

Demak, shaxs tomonidan jinoiy niyatiga erishish uchun zarur bo'lgan barcha harakat (harakatsizlik)ni o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra amalga oshira olmagan bo'lsa, qilmish *tamom bo'lmagan suiqasd* deyiladi.

Fikrimizcha, tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasdni jinoyat tarkibi elementlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda farqlash talab etiladi.

Obyektiv elementiga ko'ra: tamom bo'lgan suiqasdda JK Maxsus qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan barcha qilmishlar to'liq bajarilgan, biroq oqibat kelib chiqmagan bo'ladi; tamom bo'lmagan suiqasdda esa JK Maxsus qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakat yoki harakatsizlik to'liq bajarilmagan bo'ladi. *Subyektiv elementiga ko'ra:* tamom bo'lgan suiqasdda shaxs o'zi tomonidan amalga oshirilgan qilmish jinoiy qasdini amalga oshirish uchun yetarliligini angelaydi, biroq jinoiy natija yuz bermaydi, tamom bo'lmagan suiqasdda esa subyekt ichki ishonchiga ko'ra barcha zarur harakatlar amalga oshirilmaganligini angelaydi. Shuningdek, tamom bo'lgan suiqasd faqat moddiy tarkibli jinoyatlarda, tamom bo'lmagan suiqasd esa moddiy va formal tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ko'ra: tamom bo'lgan suiqasdda shaxs o'ziga bog'liq bo'lgan barcha harakat yoki harakatsizlikni to'liq amalga oshiradi, biroq shaxs istagan jinoiy oqibat tashqi ta'sirlar natijasida yuz bermaydi. Bu esa shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligini, jinoyatga puxta tayyorgarlik ko'rilganligi va professional faoliyati muayyan darajada shakllanganligini ifodalaydi. Tamom bo'lmagan suiqasdda esa jinoyatni oxiriga yetkazish uchun zarur bo'lgan harakatlar shaxs tomonidan to'liq amalga oshirilmagan bo'ladi.

Xulosalar

Birinchidan, tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga ko'ra farqlanganligi tufayli jazo tayinlashda o'zaro differentsiatsiya qilinishi maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, tamom bo'lmagan suiqasdda shaxs jinoyat obyektiga zarar yetkazish uchun o'zi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan barcha zarur harakat yoki harakatsizlikni o'zining irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra amalga oshirmagan bo'ladi. Tamom bo'lgan suiqasdda esa jinoyat obyektiga zarar yetkazish maqsadida shaxs tomonidan amalga oshirilishi talab etiladigan barcha harakat yoki harakatsizlik amalga oshirilgan, biroq qilmish shaxs irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmagan bo'ladi;

uchinchidan, tamom bo'lmagan suiqasdda jinoyat shaxs tomonidan zarur qilmishlar amalga oshirilmaganligi tufayli jinoyat yakuniga yetkazilmagan bo'lsa, tamom bo'lgan suiqasdda shaxs tomonidan barcha zarur harakatlar amalga oshirilgan, biroq mazkur harakatlar jinoiy oqibat yuz berishi uchun yetarli darajada bo'lmaganligi tufayli oxiriga yetkazilmagan bo'ladi. Demak, tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd subyektning tasavvuri emas, balki obyektiv tomon belgilariga ko'ra farqlanadi.

Tamom bo'lgan jinoyat tamom, bo'lgan suiqasd kabi birikmalarni qo'llashda tushunmovchiliklarning oldini olish, qonun texnikasi talablariga rioya etish, so'zlarni o'z ma'nosida ishlatish va jinoyat sodir etish bosqichlari institutining o'zaro bog'liqligidan kelib chiqqan holda suiqasd turlarini "yakunlanmagan suiqasd" va "yakunlangan suiqasd" sifatida qo'llash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. "Yakunlanmagan" so'zi "boshlangan, oxirigacha yetkazilmagan" ma'nolarini anglatadi.

Shunday ekan, jinoyat sodir etishning mazkur bosqichida suiqasd yakunlanadi, shaxs o'ziga bog'liq bo'lgan barcha qilmishlarni sodir etadi yoki aksincha, yakunlanmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd uchun turli miqdorda jazo tayinlanishi zarur. Tamom bo'lmagan suiqasd uchun jazo miqdori yoki muddati JK Maxsus qismining tegishli tamom bo'lgan jinoyat moddasida nazarda tutilgan qattiqroq jazoning maksimal muddati yoki miqdorining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Tamom bo'lgan suiqasd uchun jazo miqdori yoki muddati JK Maxsus qismining tegishli tamom bo'lgan jinoyat moddasida nazarda tutilgan qattiqroq jazoning maksimal muddati yoki miqdorining to'rttdan uch qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

REFERENCES

1. Entsiklopediya ugolovnogo prava [Encyclopedia of Criminal Law]. St. Petersburg, 2010, Unfinished Crime. Published by Professor Malinin, vol. 5, p. 267.
2. Kozlov A.P. Ucheniye o stadiyakh prestupleniya [The doctrine of the stages of crime]. St. Petersburg, p. 289.
3. Nazarenko A.G., Sitnikova A.I. Neokonchennoye prestupleniye i yego vidy [Unfinished crime and its types]. Moscow, 2003, p. 108.
4. Anisimov A.A. Neokonchennyye prestupleniya i osobennosti ikh dokazyvaniya [Unfinished crimes and the peculiarities of their proof]. Voronezh, 2003, pp. 51–52.
5. Jinoyat huquqi. Mualliflar jamoasi [Criminal law. The team of authors]. Toshkent, MIA Academy, 2012, p. 226.
6. Rustambayev M.X., Otaxonov A.A. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Besh tomli. 1. Umumiy qism. Jinoyat doktrinasi [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. It has five roofs. Roof 1. General part. Criminal doctrine]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 228.
7. Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsiddinov Z.Z. Jinoyat huquqi [Criminal law (general part)]. Tashkent, TSUL, 2021, p. 53.
8. Salayev N.S., Niyozova S.S. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolari [Problems of qualification of crimes (General part)]. Tashkent, TSUL, 2023, p. 182.
9. Orlova A.I. Dobrovolnyy otkaz ot prestupleniya, problemy teorii i praktiki [Voluntary renunciation of crime: problems of theory and practice]. Krasnoyarsk, 2007, p. 88.
10. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi [Criminal Law (General Section)]. Tashkent, Generation of the new age, 2012, p. 262.
11. Zdravomyslov B.V. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Obshchaya chast [Criminal Law of the Russian Federation. General Part]. Moscow, 2002, p. 239.
12. Porotikov D.Yu. Neokonchennoye prestupleniye: teoricheskiye modeli, zakonodatel'nyye konstruktsii i problemy ikh primeneniya [Unfinished crime:

theoretical models, legislative structures and problems of their application]. Moscow, 2007, p. 153.

13. Reshetnikov A.Yu. Pokusheniye na prestupleniye v rossiyskom ugolovnom prave [Attempted crime in Russian criminal law]. Moscow, 2007, p. 39.

14. Tadevosyan L.Z. Problemy otvetstvennosti za neokonchennuyu prestupnuyu deyatel'nost' po ugolovnomu zakonodatel'stvu Respubliki Armeniya [Problems of responsibility for unfinished criminal activity under the criminal legislation of the Republic of Armenia]. Moscow, 2010, pp. 110–111.

15. Toshkent viloyati Jinoyat ishlari bo'yicha Bo'ka tuman sudining 1-1105-2401/34-sonli jinoyat ishi arxividan [From the archive of criminal case No. 1-1105-2401/34 of Boka district court on criminal cases of Tashkent region.].

16. Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Bo'ka tuman sudi arxividan 1-1105-2401/84-sonli jinoyat ishi [Criminal case no. 1-1105-2401/84 from the archive of Boka district court of Tashkent region].

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.3./EYXW5434

UDC: 343.378(045)(575.1)

BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLARNI SODIR ETGAN SHAXSNING KRIMINOLOGIK TAVSIFI YUZASIDAN MULOHAZALAR

Yermashev Jengis Maratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-2967-5266
e-mail: j.ermashev1977@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi masalalari tahlil qilingan. Bunda ijtimoiy-biologik, ijtimoiy-demografik va ijtimoiy-psixologik ma'lumotlarning jamlanishiga asosanib, bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchining shaxsiga tavsif berilgan. Xususan, bunday jinoyatlar odatda turmush qurgan, farzandli, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan, kasbiy yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, moliyaviy barqaror erkak shaxs tomonidan sodir etilishi aniqlangan. Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarni jinoyatchi shaxsining yosh ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda uchta toifaga ajratish tavsiya etilgan: 1) JK 130-, 130¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18–30 yoshdagi shaxslar tomonidan; 2) JK 182-, 184-, 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan; 3) JK 244³-, 244⁴- va 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18–60 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etiladi. Bundan tashqari, profilaktika tadbirlarini ishlab chiqishda JK 130-, 130¹-, 244³-, 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida, JK 182-, 184-, 244⁴- va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ham mamlakatimizga tashrif buyuradigan chet el fuqarolari o'rtasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: bojxona sohasidagi jinoyatlar, kontrabanda, bojxona chegarasi, bojxona nazorati, jinoyatchi shaxsi, ijtimoiy-biologik belgilar, ijtimoiy-demografik belgilar, ijtimoiy-psixologik belgilar, kasbiy yoki tadbirkorlik faoliyati, yosh ko'rsatkichi, chet el fuqarolari.

ВОПРОСЫ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛИЦА, СОВЕРШИВШЕГО ПРЕСТУПЛЕНИЯ В ТАМОЖЕННОЙ СФЕРЕ

Ермашев Женгис Маратович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы криминологической характеристики лица, совершившего преступления в таможенной сфере. На основе совокупности социально-биологических, социально-демографических и социально-психологических данных установлен личностный портрет преступника, совершившего преступления в таможенной сфере. В частности, установлено, что обычно подобные преступления совершают лица, финансово устойчивые, мужского пола, состоящие в браке, имеющие детей, получившие среднее образование, занимающиеся профессиональной или предпринимательской деятельностью. Также рекомендовано разделить таможенные преступления на три категории с учётом возраста правонарушителя: 1) преступления, предусмотренные статьями 130, 130¹ УК, совершённые преимущественно лицами в возрасте 18–30 лет; 2) преступления, предусмотренные статьями 182, 184, 246 УК, совершённые преимущественно лицами в возрасте 30–60 лет; 3) преступления, предусмотренные статьями 244³, 244⁴ и 250¹ УК, совершаемые преимущественно лицами в возрасте 18–60 лет. Кроме того, при разработке мер пресечения между гражданами Республики Узбекистан за преступления, предусмотренные статьями 130, 130¹, 244³, 250¹ УК, как гражданами Республики Узбекистан, так и иностранцами, посещающими нашу страну с целью преступлений, предусмотренных статьями 182, 184, 244⁴ и 246 УК, рекомендуется провести пропагандистскую работу среди граждан страны.

Ключевые слова: преступления в таможенной сфере, контрабанда, таможенная граница, таможенный контроль, личность преступника, социально-биологические характеристики, социально-демографические характеристики, социально-психологические характеристики, профессиональная или предпринимательская деятельность, возрастной показатель, иностранные граждане.

ISSUES OF CRIMINOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PERSON WHO COMMITTED CRIMES IN THE CUSTOMS SPHERE

Ermashev Jengis Maratovich,
Independent researcher of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD)



Abstract. *This article analyzes the issues of criminological description of the person who committed crimes in the customs field. Based on the summation of socio-biological, socio-demographic and socio-psychological data, the identity of the criminal who committed crimes in the customs sphere is described. In particular, it was determined that such crimes are usually committed by a financially stable male person who is married, has children, has a secondary education, is engaged in professional or entrepreneurial activities. It is also recommended to divide customs crimes into three categories, taking into account the age of the offender: 1) crimes provided for in Articles 130, 130¹ of the Criminal Code are mainly committed by persons aged 18-30; 2) crimes provided for in Articles 182, 184, and 246 of the Criminal Code are mainly committed by persons aged 30-60; 3) crimes provided for in Articles 244³, 244⁴, and 250¹ of the Criminal Code are mainly committed by persons aged 18-60. In addition, in the development of preventive measures, between citizens of the Republic of Uzbekistan for the crimes provided for in Articles 130, 130¹, 244³, and 250¹ of the Criminal Code, both citizens of the Republic of Uzbekistan and foreigners visiting our country for the crimes provided for in Articles 182, 184, 244⁴, and 246 of the Criminal Code, it is recommended to carry out propaganda work among the citizens of the country.*

Keywords: *customs crimes, smuggling, customs border, customs control, criminal identity, socio-biological characteristics, socio-demographic characteristics, socio-psychological characteristics, professional or entrepreneurial activity, age index, foreign citizens.*

Kirish

Bizga ma'lumki, huquqbuzarliklarning samarali oldini olish jinoyatchi shaxsini tushunish va unga murojaat qilishga tayanadi, chunki u jinoiy harakatlar ortidagi motivlarning kalitini o'z ichiga oladi. Jinoyatchi shaxsining huquqiy tushunchasi jinoiy xulq-atvorning butun doirasida hal qilinuvchi element hisoblanadi. Jinoiy xatti-harakatlarga olib keladigan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ularga ta'sir qilish profilaktika choralarining asosiy yo'nalishi bo'lishi kerak. Binobarin, jinoyatchi shaxsi jinoiy xulq-atvorining sabablari va mexanizmlari kriminologiyada markaziy va murakkab masala hisoblanadi [1, 63-b.].

Jinoyatchi shaxsini o'rganish falsafa, sotsiologiya, psixologiya, jinoyat huquqi va kriminologiya kabi turli nazariy manbalardan olinadi. Amaliy tushunchalar jinoyatchilikning oldini olish, tergov, sud jarayonlari va rehabilitatsiya harakatlaridan kelib chiqadi [2, 75-b.]. Kriminologik tadqiqotlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishning amaliy zaruratidan kelib chiqqan holda ushbu g'oyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kriminologik bilimlar rivojlanishi jarayonida jinoyatchining shaxsi bo'yicha bahslar qizg'in kechgan, unga ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, fan taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlar ta'sir ko'rsatgan. Jinoiy xatti-harakatlarning oldini olish strategiyasini ishlab chiqish uchun jinoyatchi shaxsining mazmuni, mavjudligi, o'ziga xos xususiyatlari, roli va ta'siriga oid savollar doimiy ravishda muhokama qilinib kelinmoqda.

Material va metodlar

Kriminologiyada jinoyatchi shaxsi tushunchasiga ikkita asosiy yondashuv mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, jinoyatchi shaxsi jinoiy xulq-atvorga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-psixologik, axloqiy va huquqiy xususiyatlarni qamrab oladi. Jumladan, A.I. Dolgovaning fikricha, jinoyatchi shaxsini kriminologik tadqiq qilish uning obyektiv ijtimoiy pozitsiyalari va rollarini, shuningdek, subyektiv motivatsion va me'yoriy xususiyatlarini tekshirishni o'z ichiga oladi [3, 180-b.]. Shuningdek, Z.A. Astemirov jinoyatchi shaxsini biologik o'xshash va ijtimoiy orttirilgan salbiy psixologik sifatlar va kriminogen mazmunga ega bo'lgan xarakter belgilari tufayli jinoyat sodir etgan shaxsni tavsiflovchi tipik tushuncha sifatida belgilab, muqobil nuqtayi nazarni taqdim etadi [4, 57-b.].

Demak, jinoyatchi shaxsi tushunchasi murakkab bo'lib, "shaxs" haqidagi sotsiologik tushunchalarni "jinoyatchi"ning ijtimoiy-huquqiy jihatlari bilan birlashtiradi. U turli xil xususiyatlar va ta'sirlarni o'z ichiga oladi va kriminologlar uni turli tomonlardan tahlil qilib, uning jinoiy xatti-harakatlardagi rolini va jinoiy harakatlarni tushunish va oldini olish muhimligiga e'tibor qaratadilar.

Aksariyat tadqiqotchilar [5, 72-73-b.; 6, 120-b.] jinoyatchilarni bir-biridan ajratib turuvchi o'ziga xos belgilar mavjud emasligini qayd etgan holda alohida "jinoyatchi shaxsi" tushunchasi zarurati mavjud emasligini ta'kidlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, "jinoyatchi shaxsi" tushunchasi faqat jinoyat qonunini buzgan shaxslarni belgilaydi hamda bunday holda an'anaviy jinoyat subyekti tushunchasi yetarli hisoblanadi. Biroq biz ularning nuqtayi nazari jazoni individuallashtirish, axloq tuzatish ta'sirini optimallashtirish va maqsadli profilaktika harakatlari kabi maqsadlarda jinoyatchi shaxsining kriminologik jihatlari o'rganish muhimligini qayd etamiz.

Shuni e'tiborga olish zarurki, kriminogen xususiyatlar turli xil omillar ta'sirida shaxsga singib ketadi va uni e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Bundan tashqari, jinoyat sodir etilishiga vaziyat va tashqi muhit ta'sir qilishi mumkin, ammo bir xil holat turli shaxslar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Shunday qilib, jinoyatchining shaxsiyati tashqi ijtimoiy omillarga nisbatan individual jinoiy xatti-harakatlarda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

A.I. Dolgova bu nuqtayi nazarni qo'llab-quvvatlaydi va jinoyatchi shaxsiga oid kriminologik tadqiqotlar shaxsning ijtimoiy mavqeyi, roli va ijtimoiy ahamiyatini qamrab olishini ta'kidlaydi [3, 180-b.]. Shuning uchun jinoyatni shaxsning kriminogen xususiyatlari va vaziyat omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasi sifatida qarash yanada to'g'ri yondashuvdir. "Jinoyatchi shaxsi" tushunchasiga ijtimoiy psixologiyaning turli shakllari, huquqiy, axloqiy qarashlar, qadriyatlar va individual psixologik xususiyatlarning tashuvchisi sifatida qarash kerak.

Tadqiqot natijalari

Bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchining shaxsi ushbu qilmishlarning latentlik darajasi yuqori ekanligi sababli ham umumiy jinoyatchilikdan farq qiladi. Amalda davlat va jamoat munosabatlarining madaniy-axloqiy, iqtisodiy va jamoat xavfsizligiga, shuningdek, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi jinoyatchi shaxsini farqlash va aniq tavsiflash qiyin. Shunga qaramay, bojxona bilan



bog'liq huquqbuzarliklarga aloqador bo'lgan jinoyatchi shaxsining ayrim ijtimoiy, psixologik va huquqiy belgilari boshqa iqtisodiyot asoslari, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchilarning xususiyatlari bilan o'xshashliklarga ega bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, jinoyatchilarning ko'pchiligida muayyan xususiyatlar namoyon bo'ladi, bizningcha, ushbu jihat ham bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsini alohida ijtimoiy-psixologik tur sifatida ko'rib chiqishni asoslaydi. Uning o'ziga xosligi jinoyatchilarning ma'naviy, psixologik va ijtimoiy dunyosining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy muhit ta'siriga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan taqdim etilgan statistika ma'lumotlariga ko'ra [7], 2021-yilda JK 130-moddasi bo'yicha 4 ta holat yuzasidan 6 nafar shaxsga nisbatan, 130¹-moddasi bo'yicha 1 ta holat yuzasidan 3 nafar shaxsga nisbatan, 182-moddasi bo'yicha 169 ta holat yuzasidan 356 nafar shaxsga nisbatan, 184-moddasi bo'yicha 687 ta holat yuzasidan 1128 nafar shaxsga nisbatan, 244³-moddasi bo'yicha 2 ta holat yuzasidan 2 nafar shaxsga nisbatan, 244⁴-moddasi bo'yicha 41 ta holat yuzasidan 48 nafar shaxsga nisbatan, 246-moddasi bo'yicha 252 ta holat yuzasidan 333 nafar shaxsga nisbatan, 250¹-moddasi bo'yicha 30 ta holat yuzasidan 51 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishlari ko'rib tamomlangan.

2022-yilda esa JK 130-moddasi bo'yicha 13 ta holat yuzasidan 14 nafar shaxsga nisbatan, 130¹-moddasi bo'yicha 3 ta holat yuzasidan 6 nafar shaxsga nisbatan, 182-moddasi bo'yicha 232 ta holat yuzasidan 408 nafar shaxsga nisbatan, 184-moddasi bo'yicha 830 ta holat yuzasidan 1225 nafar shaxsga nisbatan, 244³-moddasi bo'yicha 8 ta holat yuzasidan 8 nafar shaxsga nisbatan, 244⁴-moddasi bo'yicha 86 ta holat yuzasidan 92 nafar shaxsga nisbatan, 246-moddasi bo'yicha 297 ta holat yuzasidan 392 nafar shaxsga nisbatan, 250¹-moddasi bo'yicha 40 ta holat yuzasidan 58 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishlari ko'rib tamomlangan.

2023-yilda JK 130-moddasi bo'yicha 24 ta holat yuzasidan 33 nafar shaxsga nisbatan, 130¹-moddasi bo'yicha 9 ta holat yuzasidan 25 nafar shaxsga nisbatan, 182-moddasi bo'yicha 245 ta holat yuzasidan 391 nafar shaxsga nisbatan, 184-moddasi bo'yicha 884 ta holat yuzasidan 1315 nafar shaxsga nisbatan, 244³-moddasi bo'yicha 10 ta holat yuzasidan 10 nafar shaxsga nisbatan, 244⁴-moddasi bo'yicha 55 ta holat yuzasidan 58 nafar shaxsga nisbatan, 246-moddasi bo'yicha 307 ta holat yuzasidan 406 nafar shaxsga nisbatan, 250¹-moddasi bo'yicha 41 ta holat yuzasidan 54 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishlari ko'rib tamomlangan.

Ko'rib turganimizdek, bojxona sohasidagi jinoyatlar ko'rsatkichi barcha holatlarda yildan yilga o'sish tendensiyasiga ega, shuningdek, shaxslar asosan jinoyat predmeti boshqa moddalarga nisbatan kengroq doirani qamrab oluvchi JK 182- va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilgan.

Jinoyatchilarni tasniflash uchun turli mezonlar, jumladan, sotsiologik, demografik va huquqiy jihatlardan foydalanish mumkin. Sotsiologik mezonlar jinoyatchi shaxsining jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, moddiy ahvoli, ijtimoiy mavqeyi, oilaviy

ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi, mehnatda bandligi, kasbi, mutaxassisligi va yashash joyini o'z ichiga oladi. Huquqiy mezonlarga sodir etilgan jinoyatlarning xususiyati va og'irligi, birinchi marta yoki takroran sodir etilgan jinoyatlar, guruh yoki yakka tartibda sodir etilgan jinoyatlar, jinoiy faoliyatning davomiyligi, jinoiy tajovuz obyekti, aybning shakli kiradi. Tasniflashning boshqa yondashuvlarida shaxsning individual-psixologik va boshqa xususiyatlari, masalan, intellektual rivojlanish, xarakter xususiyatlari, irodaviy fazilatlar, ehtiyoj va qiziqishlar, antisotsial xarakterdagi o'ziga xos moyillik va odatlar, jinoiy tajriba, kasalliklar va fiziologik xususiyatlar hisobga olinadi [11-12].

Tanqidiy nuqtayi nazardan jinoyatchi shaxsini tahlil qilish idrok, xarakter xususiyatlari, iroda, ehtiyoj va qiziqishlarning rivojlanishiga e'tibor berishni o'z ichiga oladi. Alohida e'tibor individual psixologik xususiyatlar, moyillik va g'ayriijtimoiy xarakterdagi odatlarga, shuningdek, jinoiy tajribaga, kasalliklarga va fiziologik xususiyatlarga qaratiladi. Jinoyatchi shaxsini turli kriminologik yondashuvlar asosida, amaliy materiallar va sotsiologik tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish va umumlashtirish orqali tasniflash bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsini batafsil tushunish imkonini beradi.

Masalan, ijtimoiy-biologik ko'rsatkichlar tahlili bojxona sohasida jinoyat sodir etuvchi shaxslarning o'ziga xos xususiyatlarida aniq xususiyatlarni ochib beradi [13-15].

Jinsi: statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2022-yillarda JK 130-moddasi bo'yicha jinoyat ishi ko'rib tamomlangan shaxslarning barchasi erkaklar, 2023-yilda 15,2 foizi ayollar bo'lgan. JK 130¹-moddasi bo'yicha ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 100 foizi, 2022-yilda 66,7 foizi, 2023-yilda 92,0 foizi erkaklar bo'lgan. JK 182-moddasi bo'yicha 2021-yilda 94,4 foizi, 2022-yilda 86,0 foizi, 2023-yilda 88,7 foizi, JK 184-moddasi bo'yicha 2021-yilda 95,4 foizi, 2022-yilda 94,4 foizi, 2023-yilda 95,4 foizi, 244³-moddasi bo'yicha 2021- va 2023-yillarda 100 foizi, 2022-yilda 87,5 foizi, 244⁴-moddasi bo'yicha 2021-yilda 93,7 foizi, 2022-yilda 89,1 foizi, 2023-yilda 93,1 foizi, 246-moddasi bo'yicha 2021-yilda 92,5 foizi, 2022-yilda 92,1 foizi, 2023-yilda 86,4 foizi, 250¹-moddasi bo'yicha 2021-yilda 86,3 foizi, 2022-yilda 86,2 foizi, 2023-yilda 92,6 foizi erkaklar bo'lgan [7].

Tadqiqot natijalari tahlili

Demak, bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning katta qismi, ya'ni 2021–2023-yillarda o'rtacha 91,5 foiz, shu jumladan, 2021-yilda 95,3 foiz, 2022-yilda 87,7 foiz, 2023-yilda 91,6 foiz qismi erkaklardir.

Yoshi: statistika ma'lumotlariga ko'ra, JK 130-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 100 foiz holatda 18–30 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2022-yilda 7,1 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 85,8 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 7,1 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2023-yilda 3,0 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 81,8 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 15,2 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 130¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 100 foiz holatda 18–30 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2022-yilda 66,7 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 33,3 foiz



holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2023-yilda 4,0 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 72,0 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 24,0 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 182-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 0,3 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 34,5 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 64,5 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 0,7 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2022-yilda 27,9 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 71,1 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 1,0 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2023-yilda 1,0 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 27,1 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 69,4 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 2,5 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 184-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 0,1 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 23,1 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 76,6 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 0,2 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2022-yilda 23,4 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 74,0 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 2,6 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2023-yilda 0,1 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 21,5 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 75,3 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 3,1 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 244³-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 100 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2022-yilda 62,5 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 37,5 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2023-yilda 40 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 60 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 244⁴-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 56,2 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 43,8 foiz holatda 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan, 2022-yilda 1,1 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 47,8 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 48,9 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 2,2 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2023-yilda 60,3 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 38,0 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 1,7 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 246-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 0,9 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 33,6 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 61,9 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 3,6 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2022-yilda 0,3 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 34,2 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 64,0 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 1,5 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2023-yilda 0,2 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 33,5 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 62,9 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 3,4 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan sodir etilgan.

JK 250¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat 2021-yilda 3,9 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 52,9 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 43,2 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 3,6 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan, 2022-yilda 46,5 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 53,5 foiz holatda 30–60 yoshdagi oshgan shaxslar tomonidan, 2023-yilda 3,7 foiz holatda 18 yoshgacha bo'lgan, 44,4 foiz holatda 18–30 yoshdagi, 48,2 foiz holatda 30–60 yoshdagi, 3,7 foiz holatda 60 yoshdan oshgan shaxslar tomonidan sodir etilgan [7].

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan statistik tahlildan xulosa qiladigan bo'lsak, bojxona sohasidagi jinoyatlarni jinoyatchi shaxsining yosh ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda uchta toifaga ajratish mumkin:

- 1) JK 130-, 130¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18–30 yoshdagi shaxslar tomonidan;
- 2) JK 182-, 184-, 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 30–60 yoshdagi shaxslar tomonidan;
- 3) JK 244³-, 244⁴- va 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18–60 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Demak, bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda ushbu tasnifga asoslangan holda tegishli yoshdagi asosan erkak jinsiga mansub shaxslarga ko'proq e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar orqali jinoyat sodir etgan shaxslarning fuqaroligi, oilaviy ahvoli, ma'lumoti, kasbiy faoliyati, moliyaviy holati hamda boshqa ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Fuqaroligi. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning fuqaroligi masalasi tahlili ularning asosan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ekanligini ko'rsatdi. O'z navbatida, 2021-yilda ushbu sohada jami 156 nafar (bojxona sohasidagi barcha jinoyatlar hisobida 8,1 foiz holatda) chet el fuqarosi tomonidan hamda 5 nafar (bojxona sohasidagi barcha jinoyatlar hisobida 0,2 foiz holatda) fuqaroligi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar 2022-yilda 182 nafar (8,3 foiz) va 1 nafarni (0,04 foiz), 2023 yilda 129 nafar (5,6 foiz) va 1 nafarni (0,04 foiz) tashkil etgan [7].

Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan chet el fuqarolarining 2021-yilda 95,5 foizi, 2022-yilda 88,5 foizi, 2023-yilda 91,5 foizi JK 182- va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda aybli deb topilgan.

E'tibor qaratish zarurki, 2021- va 2022-yillarda JK 130-, 130¹-, 244³-, 250¹-moddalari, 2023-yilda JK 130-, 130¹-, 250¹-moddalari bo'yicha biror marta ham chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar aybdor deb topilmagan. Ushbu holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslarning barchasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblangan.

Demak, bojxona sohasidagi jinoyatlar bo'yicha profilaktika tadbirlarini ishlab chiqishda JK 130-, 130¹-, 244³-, 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida, JK 182-, 184-, 244⁴- va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ham mamlakatimizga tashrif buyuradigan chet el fuqarolari o'rtasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Oilaviy ahvol. Aniqlangan jinoyatchilar odatda turmush qurgan bo'lib, mamlakatdagi umumiy ko'rsatkichning 80–90 foizini tashkil qiladi. Bu oilaviy ahvol va bojxona bilan bog'liq jinoyatlarda ishtirok etish o'rtasidagi potensial bog'liqlikdan dalolat beradi [8-10].

Ma'lumoti. Bojxona sohasidagi jinoyatlarda ishtirok etgan shaxslar doimiy ravishda ma'lumotga ega, asosan o'rta maxsus ma'lumotli shaxslardir.



Kasb. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning kasbi turlicha taqsimlangan. Taxminan 5–10 % ishchilar (bojxona xodimlari), 70–80% esa kichik va oʻrta tadbirkorlardir. Shunisi eʼtiborga loyiqki, bojxona organlarining mansabdor shaxslari koʻpincha oʻz rahbarlarining koʻrsatmalariga koʻra harakat qilishlari mumkin, ular haqiqiy aybdor boʻlishi mumkin, ammo turli holatlar tufayli jinoiy javobgarlikdan qutulib qoladilar.

Moliyaviy ahvol. “Oddiy” jinoyatchilarning moddiy farovonligiga qarab ijtimoiy tabaqalanishi shuni koʻrsatadiki, 2–3 % juda boy, 5–7 % boy, 22–25 % “oʻrta tabaqa”ga mansub, 65–70 % qashshoqlik chegarasidan past. Bojxona munosabatlari sohasida huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan shaxslar uchun taqsimot har xil: 10–15 foizi juda boy (tadbirkorlar), 40–45 foizi boylar (rahbarlar, bojxona organlari rahbarlari).

Shaxsning ijtimoiy xususiyatlari. “Jinoyatchi shaxs”ning masʼuliyati past va norasmiy gʻayriijtimoiy guruhlariga moyilligi haqidagi anʼanaviy konsepsiyadan farqli oʻlaroq, bojxona sohasidagi jinoyatlarda ishtirok etgan shaxslar koʻpincha oʻzlarini qonunga boʻysunuvchi fuqarolar sifatida koʻrsatadilar. Ular odatda hurmatli oilaviy hayotni, faol jamiyat ishtirokini va muayyan siyosiy qarashlarni tasvirlaydi. Bu jinoiy shaxslarni tushunish va aniqlashning murakkabligini koʻrsatib, kriminologik tahlilda nozik yondashuv zarurligini isbotlaydi.

Ijtimoiy-psixologik koʻrsatkichlarni sotsiologik tadqiqot maʼlumotlarini sintez qilish asosida tahlil qilish bojxona munosabatlari sohasida huquqbuzarlik va jinoyat sodir etuvchi shaxslarning oʻziga xos belgilarini aniqlaydi.

Axloqiy va maʼnaviy ehtiyojlar. Ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning taxminan 75 % axloqiy, ijodiy, ilmiy va boshqa maʼnaviy ehtiyojlarni past darajada namoyon qiladi. Ushbu shaxslar uchun moddiy va biologik ehtiyojlar ustuvor boʻlib, vaziyat taʼsiri ostida oʻzgarib turadigan beqaror qiymat yoʻnalishlarini koʻrsatadi.

Intellektual rivojlanish. Bu shaxslarning intellektual rivojlanishi sezilarli hayotiy tajribaga qaramay, past boʻladi. Ularning dunyoqarashi koʻpincha axloqsiz, shaxsiy boyishga qaratilgan.

Xarakterning xususiyatlari. Bojxona munosabatlari tartibiga qaratilgan jinoiy harakatlar davlat va jamiyat manfaatlarining keng doirasiga salbiy taʼsir koʻrsatishini hisobga olsak, umumiy belgilarga introversiya va masʼuliyatsizlik kiradi.

Irodaviy xususiyatlar. Jinoyatchilar qatʼiyatlilik va boshqalarga taʼsir oʻtkazish qobiliyatini namoyon qiladi. Jinoyatchi shaxsining eʼtiborga molik jihat – bir millatga mansublikka asoslangan boʻrttirilgan hamjihatlik tuygʻusi.

Odatlar va tendensiyalar. Anti-ijtimoiy tendensiyalar spirtli ichimliklar, vaqti-vaqti bilan giyohvand moddalarni isteʼmol qilish va umumiy tajovuzkor va mojaroga moyil xatti-harakatlarda namoyon boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-biologik, demografik va psixologik maʼlumotlarning jamlanishiga asoslanib, bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchining shaxsini quyidagicha tavsiflash mumkin: odatda 25–45 yoshdagi, turmush qurgan, bolalari bor erkak shaxs, oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlgan, kasbiy yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi, moliyaviy barqaror, qulay va yaxshi jihozlangan uy-joyda yashovchi shaxs. Bu shaxs past ijtimoiy masʼuliyatni, qatʼiy

irodaviy fazilatlarini, o'zini o'zi baholashni oshirib yuborishni, cheklangan intellektual imkoniyatlarni va rivojlanmagan axloqiy va ma'naviy fazilatlar tizimini namoyon qiladi.

REFERENCES

1. Abdurasulova K.R. Kriminologiya [Criminology]. Tashkent, TSIL, 2008, p. 63.
2. Niyozova S.S., Salaev N.S. Kriminologiya. Umumiy qism [Criminology. General part]. Tashkent, TSUL, 2023, p. 75.
3. Dolgova A.I. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, 2002, p. 180.
4. Astemirov Z.A. Kriminologiya [Criminology]. Makhachkala, 2002, p. 57.
5. Glinskiy Ya.I. Kriminologiya [Criminology]. St. Petersburg, 2002, pp. 72–73.
6. Kuznetsova N.F., Luneyev V.V. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, 2004, p. 120.
7. Information of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. 2024, no. 07/14-820-88.
8. Toshmurodovich S.V. Subjective signs of the crime of extortion. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2024, vol. 4 (02), pp. 20–27.
9. Khakimov K. Issues of responsibility for crimes committed in a state of intense emotional excitement. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2023, vol. 3 (12), pp. 158–161.
10. Khakimov K.B. Sovershenstvovaniye ugolovno-pravovoy otvetstvennosti za prestupleniya, sovershennyye v sostoyanii affekta, sil'nogo dushevnoy volneniya [Improving criminal liability for crimes committed in a state of passion, strong emotional distress]. *International Journal of Conference Series on Education and Social Sciences*, 2022, vol. 2, no. 7.
11. Karimov F., Kurbanov M. Crimes Against of Business Activity. Experience of the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2023, vol. 3 (04), pp. 42–49.
12. Mamadaminovich K.M. Criminal-legal aspects of regulation of business activity: the example of Uzbekistan. *Head of the Editorial Board*, 2020, p. 80.
13. Khamidov N. Criminal-Legal Aspects of the Drug Abuse in Some Countries and Imposed Approaches Against it. *International Journal of Legal Studies*, 2018, vol. 4 (2), pp. 177–183.
14. Khamidov N. Peculiarities of legal error in the criminal law of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, vol. 5, iss. 8, pp. 91–95.
15. Salaev N., Khamidov N. Qualification of Smuggling. *Uzbek Legislation and Foreign Experience*, Ilkogretim Online Publ., 2023, vol. 20 (3).



Kelib tushgan / Получено / Received: 20.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.3./CIHC7194

UDC: 343.24(045)(575.1)

JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLARNI MAJBURIY MEHNATGA JALB QILISH BILAN BOG'LIQ JAZOLAR TUSHUNCHASI

Dadaxanova Durdona Abdukaxxarovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi,

Jinoyat ishlari bo'yicha Bektemir tuman sudi raisi

ORCID: 0009-0007-0423-8998

e-mail: durdona.aliyeva.82@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat sodir etgan shaxslarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazolar tushunchasi yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bunda majburiy mehnat, jinoiy jazo hamda majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazolar kabi tushunchalarning mazmuni va mohiyati atroflicha tahlil qilingan. Ushbu tushunchalar yuzasidan amaldagi qonunchilik hujjatlari, shu jumladan, Konstitutsiya normalari, xalqaro hujjatlar va boshqa milliy qonunchilik hujjatlarida qayd etilgan aloqador normalarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ushbu masalada olimlarning qarashlari tahlil qilinib, har bir masala yuzasidan muallifning aniq xulosa va tavsiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada jazo nafaqat qasos olishga qaratilgan bo'lishi kerakligi, balki rehabilitatsiya va oldini olish vositasi sifatida xizmat qilishi zarurligi, jinoiy jazoni ham jazo, ham tarbiya elementlarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv sifatida ko'rish zarurligi xulosa qilingan. Unda jazo huquqbuzarning xulq-atvorini tuzatishga, uning keyingi jinoiy harakatlarga kirishishiga yo'l qo'ymaslikka va boshqalarni shunga o'xshash huquqbuzarliklarni sodir etishdan qaytarishga harakat qilishi kerakligi taklif etilgan. Bundan tashqari, maqolada jazoni qo'llashning qonuniy asoslarini ta'kidlab, uning davlat tomonidan ruxsat etilgan majburlov chorasi sifatidagi maqomi qayd etilgan. Unda, xususan, majburiy mehnat tarzidagi jazo huquqbuzarlarni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish, shu bilan birga, ularni mehnat faoliyatiga jalb qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: majburiy mehnat, jinoiy jazo, majburiy mehnatga jalb qilish, har qanday ish yoki xizmat, sud qarori, mahkum, huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki cheklash, jazo qo'llash tahdidi, majburlov chorasi.

ПОНЯТИЕ НАКАЗАНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПРИНУДИТЕЛЬНЫМ ТРУДОМ СОВЕРШИВШИХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ЛИЦ

Дадаханова Дурдона Абдукаххаровна,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета,
председатель Бектемирского районного суда по уголовным делам

Аннотация. В данной статье изложены научно-теоретические взгляды относительно понятия наказаний, связанных с принудительным трудом лиц, совершивших преступления. При этом подробно анализируются содержание и сущность таких понятий, как принудительный труд, уголовное наказание и наказания, связанные с привлечением к принудительному труду. Уделено внимание соответствующим нормам, связанным с этими понятиями и зафиксированным в действующих правовых документах, в том числе в Конституции, других национальных и международных правовых документах. Также были проанализированы взгляды учёных и разработаны конкретные выводы и рекомендации автора по данному вопросу. В статье сделан вывод о том, что наказание должно быть не только карательным, но и служить средством реабилитации и профилактики, и уголовное наказание следует рассматривать как многогранный подход, включающий как наказание, так и воспитательные элементы. Было предложено, что наказание должно быть направлено на исправление поведения правонарушителя, предотвращение его дальнейшей преступной деятельности и удержание других от совершения аналогичных преступлений. Кроме того, в статье подчёркивается правовая основа применения наказания, отмечается его статус меры принуждения, санкционированной государством. В частности, указывается, что наказание в виде принудительных работ служит средством лишения правонарушителей определённых прав и свобод и одновременно – привлечения к труду.

Ключевые слова: принудительный труд, уголовное наказание, привлечение к принудительному труду, любой работе или службе, решение суда, заключённый, лишение или ограничение прав и свобод, угроза наказания, мера принуждения.

THE CONCEPT OF PUNISHMENTS RELATED TO FORCED LABOR OF PERSONS WHO HAVE COMMITTED CRIMES

Dadakhanova Durdona Abdukaxharovna,
Independent researcher of Tashkent State University of Law,
Chairman of Bektemir District Criminal Court

Abstract. In this article, scientific-theoretical views are put forward regarding the concept of punishments related to forced labor of persons who have committed crimes. In this, the content and essence of concepts such as forced labor, criminal punishment,



and punishments related to involvement in forced labor are analyzed in detail. In connection with these concepts, attention is paid to the relevant norms recorded in the current legal documents, including the norms of the Constitution, international documents, and other national legal documents. Also, the views of scientists on this issue were analyzed, and specific conclusions and recommendations of the author were developed on each issue. This article concludes that punishment should not only be retributive but should also serve as a means of rehabilitation and prevention, and that criminal punishment should be viewed as a multifaceted approach that includes both punishment and educational elements. It proposes that punishment should strive to correct the offender's behavior, prevent him from committing further criminal acts, and deter others from committing similar offenses. In addition, the article highlights the legal basis for the application of punishment and notes its status as a state-sanctioned coercive measure. In particular, it is emphasized that punishment in the form of forced labor serves as a means of depriving offenders of certain rights and freedoms, as well as involving them in labor activities.

Keywords: forced labor, criminal punishment, involvement in forced labor, any work or service, court decision, convicted person, deprivation or restriction of rights and freedoms, threat of punishment, coercive measure.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42- va 44-moddalariga ko'ra, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanih huquqiga ega bo'lib, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijo etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Demak, asosiy qonunning mazkur normasi mazmuniga ko'ra, qonunda belgilangan tartibda sudlar tomonidan jinoiy jazo tariqasida tayinlanadigan shaxsni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazolar majburiy mehnat sifatida baholanmaydi. Ushbu qoidani inobatga olgan holda, jinoyat sodir etgan shaxslarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazolarni takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishini, avvalo, majburiy mehnat tushunchasi tahlili bilan boshlashni zarur deb topdik.

Avvalo, majburiy mehnat masalalari tartibga solingan xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik normalariga e'tibor qaratsak. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 8-moddasi 3-bandida hech kim majburiy yoki shart bo'lgan mehnatga majbur qilinmasligi zarurligi belgilangan [1]. Shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1930-yildagi Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat to'g'risidagi 29-sonli konvensiyasi 2-moddasi 1-bandiga muvofiq, majburiy mehnat deganda ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif etmagan har qanday shaxsdan har qanday jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmat tushuniladi [2].

Bunda “har qanday ish yoki xizmat” tushunchasi istalgan faoliyat turi, sohalari yoki sektorlari, shu jumladan, norasmiy iqtisodiyot sohalariga tegishli barcha ishlar, xizmatlar va bandlik turlariga taalluqli hisoblanadi.

Material va metodlari

Mazkur maqolada jinoyat sodir etgan shaxslarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog‘liq jazolar tushunchasi yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, huquqni qo‘llash amaliyoti usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

O‘zbekistonning 1995-yildagi Mehnat kodeksiga ko‘ra, majburiy mehnat deganda biron-bir jazoni qo‘llash bilan tahdid qilish orqali (shu jumladan, mehnat intizomini saqlash vositasi tariqasida) ish bajarishga majburlash [3] tushuniladi. Ko‘rib turganimizdek, ushbu kodeksda majburiy mehnat tushunchasining sodda ta‘rifi keltirilgan. 2022-yildagi Mehnat kodeksida esa ushbu tushunchaga berilgan ta‘rif nisbatan takomillashtirildi va yanada aniqlashtirildi: “Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo‘llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi” [4].

Ushbu ta‘rifdan majburiy mehnatning quyidagi xususiyatlarini ajratish mumkin:

majburiy mehnat faqat jismoniy shaxsga nisbatan qo‘llanadi;

majburiy mehnat jazo qo‘llash tahdidi orqali qo‘llanadi. Bunda jazo deganda jismoniy shaxsning ixtiyoriy roziligi mavjud bo‘lmagani holda, ushbu shaxsga nisbatan uni mehnat faoliyatini amalga oshirishga majbur qiladigan har qanday moddiy, jismoniy yoki ruhiy ta‘sir choralari qo‘llash yoki qo‘llash tahdidi tushuniladi.

majburiy mehnat qamrovida majburiy mehnatga jalb qilingan shaxsning roziligi bo‘lmaydi, ya‘ni u ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif qilmagan bo‘ladi;

majburiy mehnat har qanday ish yoki xizmat shaklida bo‘lishi mumkin.

Boshqa bir qarashga ko‘ra, mehnatga majburiy jalb etish ish beruvchi tomonidan biror-bir turdagi jazoni qo‘llash tahdidi bilan shaxslarning ixtiyoriga zid ravishda xizmat vazifasiga kirmaydigan yoki haq to‘lanmaydigan ish yoki vazifalarning bajartirilishi hisoblanadi. Ushbu ta‘rifda majburiy mehnatning faqat ish beruvchi tomonidan qo‘llanishi belgisiga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki majburiy mehnat boshqa shaxslar tomonidan ham qo‘llanishi mumkin.

Shu bilan birga, qayd etish zarurki, majburiy mehnat shaxsni aldash, jismoniy yoki ruhiy zo‘rlilik ishlatish, shaxsiga oid hujjatlarini olib qo‘yish, ish sharoitlarini yomonlashtirish, huquq va imtiyozlarini yo‘qotish yoki kamaytirish orqali sodir etilishi mumkin.

Bu borada J. Rasulovning qayd etishicha, majburiy mehnat holatini aniqlashda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan asosiy elementlar yoki xususiyatlar quyidagilardan iborat: *birinchidan*, bajarayotgan ishga rozilikning mavjud emasligi (ishning ixtiyoriy ravishda bajarilmasligi): qullik va qarzdorlik asorati holatida tug‘ilish yoki ularning meros bo‘lib qolishi; insonning jismonan o‘g‘irlanishi; insonning ikkinchi shaxsga sotilishi; ishlab chiqarish (qamoqxonalar yoki xususiy egaliklarda) bino va inshootlarida jismonan



tutib turilishi; psixologik majburlanish; majburiy qarzдорlik (hisobraqamlarning qalbakilashtirilishi, narxlarning yoki foiz stavkalarining haddan tashqari oshirib yuborilishi); ishning turi va mehnat sharoitlari yuzasidan aldash yoki yolg'on va'da berish; shaxsiy hujjatlar yoki boshqa shaxsiy qimmatliklarning olib qo'yilishi; *ikkinchidan*, jazolash tahdidi (majburiy mehnat holatida tutib turish vositasi sifatida): ishchiga yoki uning oila a'zolari yoxud yaqin kishilariga nisbatan jismoniy kuch ishlatish; jinsiy kuch ishlatish; qamoqqa tashlash yoki harakatlanish erkinligini boshqa shaklda jismonan cheklash; hokimiyat organlari (politsiya, immigratsiya xizmati va boshqa)ga topshirish va deportatsiya qilish; amaldagi ish joyidan bo'shatish; kelgusida ishlash uchun ruxsat bermaslik; jamoadan va jamoa hayotidan uzib qo'yish; huquq va imtiyozlardan mahrum qilish; yanada yomon mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishga o'tkazish; ijtimoiy maqomini yo'qotish [5, 100-b.].

"Majburiy mehnat" tushunchasi odamlarni mehnatga majburlashning keng miqyosdagi amaliyotini qamrab oladi. Majburiy mehnatga jalb qilingan odamlar ishni boshlashga o'zlarining erkin va ongli ravishda roziliklarini bermaganlar va/yoki ular ishlarini qoldirib ketishda erkin emaslar. Odam savdosi, qarzдорlik qulligi, bir joyga bog'lab qo'yilgan mehnat, qul mehnati va zamonaviy qullik yangiliklar va ommaviy axborot vositalarida mehnatni ekspluatatsiya qilishni ifodalaydigan terminlardir.

XMT Bosh direktori Xuan Somaviyaning ta'kidlashicha, deyarli barcha davlatlarda ikki xil muammo umumiy ko'rinishga ega: *birinchidan*, ba'zi bir istisnolarni inobatga olmaganda "majburiy mehnat" tushunchasiga aniq ta'rif mavjud emas, bu esa mazkur holatlarni aniqlash va jinoyatchilarni jazolash bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasini qiyinlashtiradi; *ikkinchidan*, yuqoridagi holatning natijasi o'laroq, qaysi bir davlatni olmaylik, majburiy mehnatni qo'llayotgan shaxslarni jazoga tortish holatlari juda ham kamchilikni tashkil qilmoqda. Shunday qilib, bunday shafqatsiz doira ildiz otib bormoqda: aniq qonunchilikning mavjud emasligi, sud ta'qibini amalga oshirish uchun resurslarning yetishmasligi yoki umuman mavjud emasligi, muammoga yetarlicha baho bermaslik va targ'ibot-tushuntirish faoliyatining cheklanganligi, shu sababli qat'iy va tushunarli qonunchilikni qabul qilishga erishishga intilishning mavjud emasligi va hokazolar [6].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, xalqaro hujjatlarda va milliy qonunchilikda qayd etilgan tushunchalarni o'zaro muvofiqlashtirish maqsadida majburiy mehnat tushunchasiga quyidagi ta'rif berish maqsadga muvofiq:

Majburiy mehnat – ixtiyoriy ravishda o'zining ish yoki xizmatini taklif etmagan jismoniy shaxsdan har qanday turdagi jazolash tahdidi ostida talab qilinadigan har qanday ish yoki xizmat.

Jinoyat sodir etgan shaxslarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazolarning mazmunini tushunishda jinoyat uchun jazoning mohiyati va mazmunini aniqlash zarur, zero, barcha jazolar, ularning turidan qat'i nazar, yagona maqsadni ko'zlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda mualliflar muayyan yuridik hodisaning mohiyati va mazmunini doim ham ajratavermaydilar. Holbuki, bu tushunchalar amalda turli mazmunga ega. Mohiyat narsalarning ichki mazmuni bo'lib, ularning ichki, eng muhim tomoni, turli-

tuman xossalari va munosabatlarini yaxlit aks ettiradi, ularning asoslarini, ularda sodir bo'layotgan teran jarayonlarni tavsiflaydi [7, 102-b.]. Falsafiy jihatdan ham mohiyat narsa, buyum, jarayonlarning ichki, muhim, asosiy, zaruriy, barqaror aloqalarini anglatadi [8, 282-b.]. Mazmun – narsalarni aynan shu narsa sifatida ifodalovchi muhim element va o'zgarishlar yig'indisi [9, 385-b.]. Mazmun muayyan narsa, hodisa, jarayonlarning o'ziga xos sifati, xususiyatlari, muhim belgilari va elementlarining yig'indisini anglatadi [10, 232-b.]. Ayni holda uning mohiyatini, ya'ni elementlarini yorituvchi narsa. Mohiyat hodisaning yaxlit ichki tavsifini, mazmun esa mazkur yaxlit tavsifning muayyan tarkibiy elementlari yig'indisini o'zida ifodalaydi. Binobarin, hodisaning mohiyati uning mazmunini nazarda tutadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Hozirgi zamon jinoyat huquqi fanida jazoning mohiyati va mazmuni to'g'risidagi masala xususida ikki xil nuqtayi nazar mavjud.

Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, jazoning mazmuni deganda mahkumni huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki mahkumning huquq va erkinliklarini cheklash tushuniladi, ya'ni jazoning mazmuni faqat jazolash elementlarini o'z ichiga olishi nazarda tutiladi [11, 62-b.; 12, 12-b.; 13, 221-b.]. Chunonchi, professor E. Jalinskiy shunday deb yozadi: "Jazoning mazmuni huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat. Jazoning mazmuniga, uning davlat-huquqiy mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqib, jazoni ijro etuvchi turli organlar tomonidan ham mahkum sudning hukmiga binoan mahrum qilinmagan barcha huquqlar va erkinliklarni himoya qilish uchun, ham jazoning samaradorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan turli harakatlar kiradi [14, 93-b.].

A.I. Martsevning fikriga ko'ra, jazoning "mohiyati" va "mazmuni" kabi tushunchalarni bir-biridan farqlash kerak. Har qanday jazoning mohiyatini jazolash tashkil etadi. Jazoning muayyan ifodasi u yoki bu turdagi jazoning mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun jazoning maqsadiga erishishda jazolash ularni amalga oshirish vositasi sifatida ishtirok etadi. Oxir-oqibatda jazo mahkumlar tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadiga qaratilgan [15, 18–19-b.]. Mazkur holat yuzasidan fikr bildirar ekan, U.Sh. Xolikulov bir shaxsni tuzatish yoki qo'rqitish maqsadidagina boshqa shaxsni jazolash adolatdan emas [16, 76-b.], deb ta'kidlaydi.

M.D. Shargorodskiy ham jazo tushunchasiga ta'rif berar ekan, jazo jinoyatchini unga tegishli bo'lgan muayyan ne'matlardan mahrum qilish bo'lib, jinoyatchi va uning faoliyati davlat tomonidan qoralanishidir [17, 12–13-b.], deb qayd etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, M. Shargorodskiy jazoni davlat tomonidan jazolash, qoralash vositasi sifatida tushunadi.

A.V. Naumov fikriga ko'ra, jazo doimo jinoyat sodir etgan shaxsning huquqlari va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq bo'lib, uni muayyan ma'naviy azob-uqubatlarga giriftor etadi (yoki hech bo'lmasa ularga giriftor etishga qodir) va uni muayyan ne'matlar (erkinlik, mulkiy huquqlar va h.k.)dan mahrum qiladi [12, 38-b.].

Arab huquqshunos olimlaridan Muhammad al-Fadelning qayd etishicha, jazo jinoyat sodir etgan kishiga qonun tomonidan belgilangan azobdir. Jinoyat sodir etgani



uchun jinoyatchiga davlat tomonidan yetkaziladigan jismoniy qiynoq va ozordan iborat [18, 521-b.].

V.N. Orlov jazoning mazmuni jazolash elementlarining o'zidagina iborat degan nuqtayi nazarni bildirgan [19, 134-b.]. Bu fikrni u qonunda jazo ushbu shaxsning huquqlari va erkinliklarini mazkur kodeksda nazarda tutilgan tartibda cheklashdan iborat ekani aniq aytib qo'yilgani bilan asoslashga harakat qiladi [19, 136-b.]. Biroq V.N. Orlov iqtibos keltirgan Jinoyat kodeksining moddasida jazo sud hukmiga binoan tayinlanadigan davlat majburlovi chorasini hisoblanishi qayd etilgan. Binobarin, jazoning asosini davlat majburlovi tashkil etadi. Davlat majburlovi deganda jamoat xavfsizligi va huquqiy tartibotni ta'minlash, fuqarolarni tarbiyalash usullaridan biri tushuniladi [12, 40-b.]. Demak, jazoning mohiyati mahkumni huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashda ifodalanuvchi jazolash elementlari bilan bir qatorda, mahkumning shaxsiyati va ijtimoiy aloqalarida ijobiy o'zgarishlar yasashga, ya'ni uni axloqan tuzatishga qaratilgan choralarni ifodalovchi tarbiyaviy yo'sindagi elementlarni ham o'z ichiga oladi.

G.T. Abdullaxodjayev shunday deb yozgan edi: "Hamonki jazo qo'llash eng muhim vazifalardan biri sifatida mahkumda qayta jazoga yo'liqishga istamaslik hissi uyg'onishini ta'minlashi, shuningdek, uni yangi jinoyatlarga qo'l urishdan tiyib turishi lozim ekan, mehnat ham, tarbiyalash ham uning tarkibiy elementlari bo'lishi mumkin emas. Jinoyatchi jazodan qo'rqishi kerak. Bu aksiomadir [20, 2-b.].

V.K. Duxunov jinoyat qonunida jazo majburlovchi yoki jazolash chorasini degan savolga javob berar ekan, shunday deb yozadi: jinoyat nazariyasi va jinoyat qonunida taklif qilinayotgan jazoning davlat majburlovi sifatidagi talqini mohiyat e'tibori bilan aniq va to'g'ri emas. Jinoyat uchun jazo tushunchasining mazmunini mazkur tushunchaning serma'noligini inobatga olmasdan, "sud hukmiga binoan tayinlanuvchi chora" tushunchasi bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Jazoning eng muhim belgisi majburlovdir, degan fikrga ham qo'shilish qiyin [11, 62-b.].

Agar shaxs jinoyat emas, boshqa huquqbuzarlik sodir etsa, unga nisbatan boshqa huquqiy ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanadi. Jinoyat jazo sodir etilgan jinoyatning tabiiy oqibati hisoblanadi va umumiy qoidaga ko'ra, qilmishining og'irligi va ijtimoiy xavflilik darajasiga mos kelishi kerak. Jazo har doim shaxsiy xususiyatga ega va faqat jinoyatchilarning o'ziga tayinlanadi, boshqa shaxslarning manfaatlariga daxl etmasligi kerak [21, 6-7-b.].

Haqiqatan ham sodir etilgan har bir jinoyat uchun jinoyatni sodir etgan shaxsning aynan o'zi qonun oldida javob berishi lozimligi qonun bilan kafolatlanadi. O'tmish va yaqin o'tmishdagi kabi oila a'zolarining sodir etgan qilmishlari uchun boshqalari javob bergani kabi emas. Bu esa, o'z navbatida, adolat va demokratik nomalarning jamiyatimiz hayotida, xususan, JKning jazolash siyosatida ham o'z o'rnini topayotganligining bir misolidir [22, 7-b.].

Jinoyat jazo sud tomonidan jinoyat qonun normalari buzilgan vaqtda huquqbuzarlarga nisbatan, ya'ni aybdor deb topilgan shaxslarga qo'llanishi mumkin bo'lgan davlatning majburlov ta'sir chorasidir. Agarda shaxs boshqa huquq normalarini buzgan taqdirda unga nisbatan boshqa turdagi huquqbuzarliklarga doir qonun normalari qo'llanadi.

Masalan, mehnat intizomini buzgan xodimga nisbatan mehnat qonunchiligi, ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan shaxsga nisbatan MJtK normalari, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarga nisbatan boshqa huquq normalari qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazo qasos olish uchun qo'llanmaydi. U muayyan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Bizningcha, *jinoiy jazo: birinchidan*, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etuvchi shaxslarga nisbatan tayinlanadi; *ikkinchidan*, jazoni o'tayotgan shaxsni jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning ongli va faol ishtirokchisiga aylantirish maqsadini ko'zlaydi; *uchinchidan*, ijtimoiy xavfli qilmishlarning qonunga muvofiq muayyan jazolar tayinlash bilan bog'liq jinoiy qilmishlar deb topilishi hamda mazkur jazolarning amalda qo'llanishi ma'naviy va axloqiy jihatdan beqaror shaxslarga ijobiy, ya'ni ular tomonidan huquqiy-tartibot talablariga rioya etilishi yo'nalishida ta'sir ko'rsatishini nazarda tutadi.

Alloma Burhoniddin Marg'inoniy jazoni jinoyat sodir etmaslik uchun qo'rqitish; ta'sir jazosi esa insonni tuzatishdir [23, 3-b.], deb qayd qiladi. Nemis faylasuflari A. Feyrbax, I. Benton, I. Kant, G. Gegellar ijobiy g'oyalarni ilgari surib, jinoyat qonunlarining qat'iyiligi insonlarni jinoyatdan tiyishga sharoit yaratadi, degan tamoyilni ilgari surganlar [23, 3-b.]. Jazo insonni jazolash uchun emas, jamiyatni himoya qilish uchundir. Shunga ko'ra, M. Rajabovanning jazo insonni jazolash emas, balki jamiyatni himoya qilishdir, degan fikriga qo'shimcha ravishda jazoning maqsadi, mamlakatimiz JKning jazoga bergan ta'rifiga binoan, jinoyatni sodir etgan shaxsni jazolash yo'li bilan uni axloqan tuzatishni ham ko'zlaydi. Biroq JK 42-moddasida jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun qo'llanishi ko'rsatilgan, shuningdek, aynan jamiyatni himoya qilishi bayon qilinmagan bo'lsa ham, ushbu normalarning negizida jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlari ham yotganini ta'kidlab o'tish kerak.

Shaxsga jazo qo'llanishi bilan bog'liq mahrumliklar va cheklashlarga toqat qilish majburiyatini yuklovchi harakatlarga davlat majburlovi jinoyatga qarshi huquqiy chora ko'rishning o'ziga xos usuli hisoblanadi. U huquq normalarida ifodalangan holdagina o'ziga xos shakl-shamoyil kasb etadi. Jazo boshqa majburlov choralaridan o'zining ayni shu shakl-shamoyiliga ko'ra farq qiladi [24, 146-b.].

Shuni qayd etish lozimki, jazo jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy vositasi emas, balki boshqa ta'sir choralari samara bermagan holda davlat tomonidan qo'llanadigan eng so'nggi choradir. U jazolash maqsadida emas, balki mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llanadi. Ya'ni hozirgi davr sharoitlarida jinoyat uchun jazoning mohiyatini faqat jazolash elementlari bilan cheklash mumkin emas. Shu tufayli ham jazoning mazmuni jazolash va tarbiyalash elementlari birikmasidan iborat, degan *ikkinchi nuqtayi nazar* ham mavjud [25, 45-b.].

Bir tomondan, qonunning mazmunidan jazo insonni muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklash xususiyatiga ega bo'lgan



jazolash vositasi ekanligi anglashiladi, boshqa tomondan esa, u mahkumni axloqan tuzatish, u yangi jinoyatlar sodir etishining oldini olish maqsadini ko'zlaydi, ya'ni qonun chiqaruvchi jazo faqat jazolash vositasi sifatida qaralishi mumkin emasligini, u kengroq mazmunga ega ekanligini to'g'ridan to'g'ri qayd etadi [26, 314-b.], deb ta'kidlaydi T.Y. Pogosyan.

M.H. Rustamboyev jazoning amaliy jihatdan qo'llanishini uchta yo'nalishga ajratadi: 1) mahkumning tuzalishiga; 2) jinoiy faoliyatni davom ettirish uchun to'sqinlik qilishga; 3) mahkumlar hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga [27, 416-b.].

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ham tegishli tushuntirishlar berib o'tilgan. Jumladan, unda "Adolatli jazo tayinlanishi undan ko'zlangan maqsadlarga – mahkumni axloqan tuzatish, mahkum va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi" [28, 225-b.], – deb qayd etilgan.

M. Usmonaliyev va P. Bakunovlarning ta'kidlashicha, "jinoiy jazo mahkumni ayrim huquq va erkinliklardan mahrum qilib yoki ularni cheklab, mahkumga ma'lum darajada jafo keltirsa-da, ammo jismoniy azob berish yoki insoniy qadr-qimmatni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi" [28, 374-b.]. O'z navbatida, ular ham M.H. Rustamboyev tomonidan ta'kidlangan uchta yo'nalishga doir fikrni bayon etishgan.

Xulosalar

Yuqoridagi fikrlardan xulosa sifatida biz yuqorida ta'kidlagan ikkita yo'nalish vakillarining fikrini to'ldirgan holda, jazoning mazmuni jazolash va tarbiyalash elementlari bilan bir qatorda yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish belgisini ham o'zida mujassam etadi, deb hisoblaymiz.

Qayd etilganlarga asosan, *jinoyat sodir etgan shaxslarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq jazo deganda*, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan, shu jumladan, uni muayyan ish yoki xizmatga majburiy ravishda jalb qilishdan iborat majburlov chorasi tushuniladi.

Jinoyat kodeksining "Atamalar huquqiy ma'nosi" bo'limiga "*Ma'muriy majburlash* ma'muriy-huquqiy normalarga asoslangan davlat boshqaruv usuli, odamlarni mehnatga jalb qilish uchun foydalanadigan aqli, jismoniy yoki boshqa ta'sir vositalari majmuidir.

Majburiy mehnat deganda biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo'llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi" degan tushunchalarni kiritish lozimdir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 148¹-moddasi dispozitsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim. Jumladan:

"148¹-modda. Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish

Voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish, xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanganidan keyin sodir etilgan bo'lsa,

– bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi”, – deb o'zgartirishni taklif etamiz.

REFERENCES

1. International Covenant on Civil and Political Rights // www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/ccpr.aspx
2. C029 – Forced Labour Convention, 1930 (No. 29) // www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312174
3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 161-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. // www.lex.uz/docs/142859. (The Labor Code of the Republic of Uzbekistan approved by Law No. 161-I of the Republic of Uzbekistan adopted on December 21, 1995. // www.lex.uz/docs/142859).
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan O'RQ-798-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. // www.lex.uz/docs/6257288 (The Labor Code of the Republic of Uzbekistan approved by the Law of the Republic of Uzbekistan No. 798 adopted on October 28, 2022. // www.lex.uz/docs/6257288).
5. Rasulov J.A. Mehnatga majburlash: “majburiy mehnat” va “zo'raki mehnat” tushunchalarining xalqaro-huquqiy standartlarda qo'llanilishi. // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer Herald. – 2021. – 3-son, 1-jild. – B. 100. (Rasulov J.A. Forced labor: application of the concepts of “forced labor” and “forced labor” in international legal standards. // Lawyer newsletter – Vestnik yurista – Lawyer Herald. – 2021. – Issue 3, Volume 1. – B. 100.).
6. A global alliance against forced labour. Global Report under the Follow-up to the ILO Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work. International Labour Conference. 93rd Session, 2005. International Labour Office, Geneva. // www.ilo.org/public/english/standards/relm/ilc/ilc93/pdf/rep-i-b.pdf.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 6. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 102. (National encyclopedia of Uzbekistan. T.6. – Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2003. – P. 102.).
8. Falsafa: qomusiy lug'at. / Mas'ul muharrir: Q.Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 282. (Philosophy: an encyclopedic dictionary. / Responsible editor: Q. Nazarov. – Tashkent: Sharq, 2004. – B. 282.).



9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.5. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б. 385. (National encyclopedia of Uzbekistan. T.6. – Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2003. – P. 385.).

10. Фалсафа: қомусий луғат. / Масъул муҳаррир: Қ.Назаров. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 232. (Philosophy: an encyclopedic dictionary. / Responsible editor: Q. Nazarov. – Tashkent: Sharq, 2004. – P. 232.).

11. Дуюнов В.К. Наказание в уголовном праве России – принуждение или кара? // Государство и право. 1997. №11. – С. 62. (Duyunov V.K. Punishment in Russian criminal law – coercion or punishment? // State and law. 1997. No. 11. – P. 62.).

12. Курс уголовного права / Под ред. Н.Ф.Кузнецовой, И.М.Тяжковой. Т.2. – М., 2000. – С. 12. (Course of criminal law / Ed. N.F. Kuznetsova, I.M. Tyazhkova. T.2. – M., 2000. – P. 12.).

13. Уголовное право России. Общая часть: Учебник / Под ред. А.И.Парога. 2-е изд. – М., 1998. – С. 221. (Criminal law of Russia. General part: Textbook / Ed. A.I.Raroga. 2nd ed. – M., 1998. – P. 221.).

14. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Под общ. Ред. Ю.И.Скуратова, В.М.Лебедева. – М.: ИНФРА-М–НОРМА, 1999. – С. 93. (Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation / Under general. Ed. Yu.I. Skuratova, V.M. Lebedeva. – M.: INFRA-M–NORMA, 1999. – P. 93.).

15. Марцев А.И. Специальное предупреждение преступлений. – Омск, 1977. – С. 18-19. (Martsev A.I. Special crime prevention. – Omsk, 1977. – P. 18-19.).

16. Холикулов У.Ш. Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилиги бўйича вояга етмаганларга жазо тайинлаш муаммолари. Юрид. фан. номз. илм. дар. олиш учун ёзил. дисс... – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – Б. 76. (Kholikulov U.Sh. Problems of sentencing minors under the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. Law. science no. science medicine write to get diss... – Tashkent: TDYU, 2006. -P. 76.).

17. Шаргородский М.Д. Наказание, его цели и эффективность. – Л., 1973. – С. 12-13. (Shargorodsky M.D. Punishment, ego goals and efficacy. – L., 1973. – S. 12-13.).

18. Муҳаммад ал-Фадел. Жиноят ҳуқуқининг умумий асослари. – Дамашқ, 1964. – Б. 521. (Muhammad al-Fadel. General principles of criminal law. – Damascus, 1964. – P. 521.).

19. Орлов В.Н. Проблемы назначения и исполнения исправительных работ: Дисс. ...канд. юрид. наук. – Ставрополь, 2000. – С. 134. (Orlov V.N. The problem of assignment and implementation of correctional works: Diss.sugar. law science – Stavropol, 2000. – S. 134.).

20. Абдуллаходжаев Г.Т. Виктимность и предупреждение преступлений против собственности. // Щит. 2002. №7-8. – С.2. (Abdullakhodjaev G.T. Виктимности предупреждение преступлений против собственности. // peak. 2002. #7-8. – S. 2.).

21. Пайзуллаев Қ.П., Салаев Н.С. Бобокелдиев Б. Ўлим жазоси: ўтмишда, ҳозирда ва келажакда. – Тошкент: Турон-иқбол, 2005. – Б. 6-7. (Payzullaev Q.P.,

Salaev N.S. Bobokeldiev B. The death penalty: past, present and future. – Tashkent: Turon-Iqbal, 2005. – P. 6-7.).

22. Фозилов Д.Ф., Қурбонов О.Э. Жиноят ҳуқуқида жазо тизимини такомиллаштиришнинг айрим муаммолари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2007. – Б. 7. (Fazilov D.F., Kurbanov O.E. Some problems of improving the penal system in criminal law. – Tashkent: Institute of Philosophy and Law, 2007. – P.7.).

23. Ражабова М. Жазонинг мақсади – жавобгарликдан огоҳ этиш. // Инсон ва қонун. – Тошкент, 2005. – Б. 3. (Rajabova M. The purpose of punishment is to warn of responsibility. // Man and the law. – Tashkent, 2005. – P. 3.).

24. С.С. Ниязова. Характеристика института убийств и его место в системе иных преступлений против жизни. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 2021/2/28. – С. 146. (S.S.Niyazova. Characteristics of the institution of murder and its place in the system of other crimes against life. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 2021/2/28. – P. 146.).

25. Бушуев И.А. Исправительные работы. – М.: Юридическая литература, 1998. – С. 45. (Bushuev I.A. Correctional work. – M.: Legal literature, 1998. – P. 45.).

26. Уголовное право. Общая часть: Учебник / Под ред. И.Я.Козаченко, З.А.Незнамова. – М.: Инфра-М–Норма, 1998. – С. 314. (Criminal law. General part: Textbook / Ed. I.Ya.Kozachenko, Z.A.Neznamova. – M.: Infra-M–Norma, 1998. – P. 314.).

27. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Умумий қисм. Т.1. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar publish, 2021. – Б. 416. (Rustambaev M.H. Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General part. T.1. – Tashkent: Legal literature publishing, 2021. – P. 416.).

28. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами: 1991–2006. Н.З. Тошматовнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 225. (Collection of decisions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan: 1991-2006. Under the general editorship of N.Z. Toshmatov. – Tashkent: Teacher, 2007. – P. 225.).

29. Усмоналиев М., Бакунов П. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик. – Тошкент: Насаф, 2010. – Б. 374. (Usmonaliev M., Bakunov P. Criminal law. General part: Textbook. – Tashkent: Nasaf, 2010. – P. 374.).

30. С.С. Ниязова. Правовая характеристика убийства в состоянии сильного душевного волнения. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. 2022/2/11. С. 61-72.

31. Niyozova Salomat Saparovna. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. 2020. Vol. 29, No.3. p. 3960 – 3969. (S.S.Niyazova. Pravovaya characteristicsika ubiystva v sostoyanii silnogo dushevno volneniya. Evraziyskiy zurnal prava, finansov i prikladnyx nauk. 2/11/2022. S. 61-72.).



Kelib tushgan / Получено / Received: 25.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.ccj.4.3./MZXD3465

UDC: 343.126(73)(045)(575.1)

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI QONUNCHILIGI VA HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIDA EHTIYOT CHORASI SIFATIDA UY QAMOG'INING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi,
Kadrlar bo'limi bosh mutaxassisi
ORCID: 0000-0001-9557-6309
e-mail: abdullayev_diyor@internet.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Aksariyat huquqshunos olimlar tomonidan uy qamog'iga zamonaviy jinoiy siyosat va jinoiy odil sudlovni insonparvarlashtirish vositasi sifatida qaraladi. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, uy qamog'i boshqa ehtiyot choralariga nisbatan yangi huquqiy institut hisoblanadi. Shu boisdan, huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammoli holatlarga oqilona yechim topish uchun ushbu ehtiyot chorasini hayotga tatbiq etish bo'yicha katta tajribaga ega xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligini va mutaxassis olimlar fikrlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish, ijobiy tajribadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur maqolada muallif tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari jinoyat-protsessual qonunchilik normalari va jinoyat ishlarini yuritish bo'yicha sud amaliyoti asosida uy qamog'i ehtiyot chorasining huquqiy tartibga solinishi, xususan, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash asoslari va shartlari, shaxsga nisbatan o'rnatiladigan cheklovlar turlari huquqiy tahlil qilish orqali tadqiq etilgan. Shuningdek, uy qamog'ini qo'llash tartibi bilan bog'liq masalalarning ilmiy-huquqiy jihatlari mohiyati xorijlik mutaxassislar va huquqshunos olimlar qarashlari orqali ochib berilgan. Maqolaning xulosa qismida AQSh qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sudgacha ozodlikda saqlash, uy qamog'i, jinoyat protsessi, ehtiyot choralari, taqiqlar (cheklovlar).

ОСОБЕННОСТИ ДОМАШНЕГО АРЕСТА КАК МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ И ПРАВОПРИМЕНИТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ США

Абдуллаев Диёр Ибодиллаевич,
самостоятельный соискатель,
главный специалист отдела кадров
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В ходе судебно-правовой реформы в нашей стране одной из приоритетных задач является либерализация и совершенствование уголовно-процессуального законодательства. Большинство учёных-юристов рассматривают домашний арест как средство гуманизации современной уголовной политики и уголовного правосудия. Согласно нашему национальному законодательству, домашний арест – это новый правовой институт по сравнению с другими мерами пресечения. Поэтому для того, чтобы найти рациональное решение тех или иных проблемных ситуаций, возникающих в правоприменительной практике, целесообразно углубленное научно-теоретическое исследование уголовно-процессуального законодательства зарубежных стран, имеющих большой опыт в реализации данной меры пресечения, и мнений учёных-специалистов, использовать их положительный опыт. В данной статье автором посредством правового анализа исследовано правовое регулирование меры пресечения в виде домашнего ареста на основе норм уголовно-процессуального законодательства и судебной практики по уголовным делам США, в частности: основы и условия применения данной меры пресечения, виды ограничений, устанавливаемых в отношении лица. Кроме того, научно-правовые аспекты вопросов, связанных с порядком применения домашнего ареста, выражены через взгляды зарубежных специалистов и учёных-правоведов, раскрыта их сущность, а в заключительной части статьи освещены специфические аспекты домашнего ареста как меры пресечения в законодательстве и правоприменительной практике США.

Ключевые слова: досудебное содержание под стражей, домашний арест, уголовный процесс, меры пресечения, запреты (ограничения).

DISTINCTIVE FEATURES OF HOUSE ARREST AS A PREVENTIVE MEASURE IN THE LEGISLATION AND LAW ENFORCEMENT PRACTICE OF THE UNITED STATES

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
Independent researcher of Tashkent State University of Law,
Chief specialist of Human Resources Department

Abstract. In the course of judicial and legal reform in our country, one of the priority tasks is the liberalization and improvement of criminal procedural legislation.



House arrest is considered by most legal scholars as a means of humanizing modern criminal politics and criminal justice. According to our national legislation, house arrest is a new legal institution compared to other precautions. Therefore, in order to find a rational solution to some problematic cases arising in the practice of applying law, it is advisable to study the criminal procedural legislation of foreign countries that have extensive experience in the application of this preventive measure and the opinions of experts of scientific and theoretical points of view and use the positive experience. In this article, the author examines the legal regulation of the preventive measure of house arrest based on the norms of the criminal procedure legislation of the United States and judicial practice in criminal cases. Specifically, the study focuses on the grounds and conditions for the application of this preventive measure, as well as the types of restrictions imposed on the individual. Additionally, the scientific and legal aspects of issues related to the procedure for applying house arrest are expressed through the views of foreign experts and legal scholars, revealing their essence. The conclusion of the article highlights the distinctive features of house arrest as a preventive measure in the legislation and law enforcement practice of the United States.

Keywords: *pretrial release, house arrest, criminal procedure, restraints measures, prohibitions (restrictions).*

Kirish

Amerika huquq tizimi butun mamlakatni qamrab oluvchi federal qonunlarga va faqat ma'lum bir shtatni qamrab oluvchi shtat qonunlariga asoslanadi. Shu boisdan, jinoyat-protsessual ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash borasida Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) tajribasini, uning o'ziga xos jihatlarini o'rganishda ushbu davlat umumiy qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotini tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, induksiya, deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi uslublar qo'llandi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Bu jarayonda AQSh qonunchiligi va jinoyat ishlarini yuritish bo'yicha sud amaliyotida uy qamog'i ehtiyot chorasini nazarda tutuvchi so'z yoki jumla terminologiyasi jihatdan bizning jinoyat-protsessual qonunchiligimizdagi singari yagona termin mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot doirasida uy qamog'i ehtiyot chorasi bilan bog'liq "House arrest", "Home confinement", "Home detention" va "Electronic Monitoring" (GPS EM) kabi turli atamalarga duch kelindi. Ajablanarlisi, bu terminlar turli shtatlarda uy qamog'ini ham ehtiyot chorasi sifatida, ham jazo turi sifatida hamda shartli ozodlik yoki probatsiya sifatida qayd etadi.

Huquqiy adabiyotlar va sohaga oid ilmiy ishlarning aksariyatida “*Home confinement*” huquqiy terminidan sudga qadar ish yurituv bosqichida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog’ini ifodalashda ko’proq foydalanilgan. Demak, *home confinement* – uy qamog’i – bu jazo yoki nazorat turi bo’lib, unda shaxs belgilangan muddat davomida o’z yashash joyida qolishi kerak. Cheklov darajasi turlicha bo’lishi mumkin, ba’zi hollarda shaxsga ish, o’qish, tibbiy uchrashuvlar yoki diniy xizmatlar kabi muhim faoliyatlar uchun uyini tark etishga ruxsat beriladi.

AQShning 41 ta shtati konstitutsiyasida sudgacha bo’lgan davrda ayblanuvchini (garov evaziga va ba’zi istisnalar bilan) ozodlikda saqlash kerakligi ko’rsatib o’tilgan. Shuningdek, har bir shtatdagi nizomlar va sud qarorlarida ham ayblanuvchini sudgacha ozodlikda saqlash bo’yicha qoidalar belgilab o’tilgan [1].

Jumladan, Alabama shtati konstitutsiyasi 16-qismida barcha ayblanuvchilar sud hukmiga qadar garov evaziga ozodlikda yurishlari mumkinligi qayd etilgan, ammo bunday huquqdan odam o’ldirishga oid jinoyatlarda ayblanayotgan va jinoyatni ana shu shaxs sodir etganiga oid ishonchli dalil mavjud bo’lgan shaxslar foydalana olmaydi. Bundan tashqari, garov miqdori haddan tashqari ko’p bo’lmasligi belgilangan [2].

Arizona konstitutsiyasida ham sudgacha bo’lgan davrda ayblanuvchilar ozodlikda yurishi mumkinligi ko’rsatilgan bo’lib, quyidagi istisnalar keltirilgan [3]:

I. Odam o’ldirishga oid jinoyatlar, jinsiy zo’ravonlik, voyaga yetmaganlar bilan jinsiy aloqa yoki ularni zo’rlash (bunga yetarli dalil mavjud bo’lsa yoki ushbu ayblanuvchi sodir etgani ehtimoli yuqori bo’lsa).

II. Avval jinoiy qilmish sodir etgan va ana shu jinoyat yuzasidan garov evaziga ozodlikda yurgan shaxs tomonidan qayta jinoyat sodir etilsa (bunga yetarli dalil mavjud bo’lsa yoki ushbu ayblanuvchi sodir etganligi ehtimoli yuqori bo’lsa).

III. Jinoiy qilmish sodir etgan shaxs tomonidan biror shaxs yoki jamiyatga xavf solinishi mumkin bo’lsa va biror chora bilan buning oldini olishi mumkin bo’lmasa (bunga yetarli dalil mavjud bo’lsa yoki ushbu ayblanuvchi sodir etganligi ehtimoli yuqori bo’lsa).

IV. Xavfli jinoyatlar sodir etgan shaxs AQSh hududiga noqonuniy kirgan va noqonuniy yashayotgan bo’lsa (bunga yetarli dalil mavjud bo’lsa yoki ushbu ayblanuvchi sodir etganligi ehtimoli yuqori bo’lsa).

Bunda ozodlikda saqlash haqidagi qaror quyidagi shartlarni o’z ichiga oladi:

- a) sudga kelish;
- b) guvohlarni zo’ravonlikdan himoya qilish;
- d) jabrlanuvchi, boshqa shaxslar va jamiyatni himoya qilish.

Indiana konstitutsiyasida esa ayblanuvchilar sud hal qiluv qarorigacha garov evaziga ozodlikda yurishlari mumkinligi belgilangan, ammo qotillik va xoinlikka oid jinoyatlarda ayblanayotgan shaxslar bundan mustasno (bunga yetarli dalil mavjud bo’lsa yoki ushbu ayblanuvchi sodir etganligi ehtimoli yuqori bo’lsa) [4].

Oklahoma konstitutsiyasida ham barcha (ayblanuvchilar) garov evaziga (sud hukmiga qadar) ozodlikda qolishi mumkinligi belgilangan [5]. Shuningdek, bunday hollarda ushbu istisnalar ham ko’rsatib o’tilgan:



- odam o'ldirish bilan bog'liq jinoyat sodir etganlar (bunga yetarli dalil mavjud bo'lsa yoki ushbu ayblanuvchi sodir etganligi ehtimoli yuqori bo'lsa);
- zo'rlik bilan, jismoniy kuch ishlatib yoxud shunday tahdiddagi jinoyatlarni sodir etganlar;
- umrbod qamoq jazosi (yoki xuddi shunday jazo shartli) tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar;
- bir vaqtda ikki va undan ortiq jinoiy ish bo'yicha ayblanuvchi tariqasida jinoiy ishga jalb qilinganlar;
- xavfli moddalarni saqlagan (savdosi bilan shug'ullangan)lar (agar ushbu jinoyat uchun kamida 10 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanishi mumkin bo'lsa) sudgacha ozodlikda bo'lish huquqidan foydalana olmaydi.

Shuningdek, ushbu shtat konstitutsiyasi 8-moddasida yuqoridagi 5 holatda agar ayblanuvchi ozodlikda bo'lsa, jamiyatga xavf tug'dirish mumkinligi va nazarda tutilgan jinoyatni aynan mazkur ayblanuvchi sodir etganligi dalili yoki ehtimoli yuqori bo'lish sharti hisobga olinishi ko'rsatib o'tilgan.

Qo'shma Shtatlarda sudgacha bo'lgan davrda gumonlanuvchi (ayblanuvchi)-ni ozodlikda saqlash turli shtatlarda alohida o'ziga xos tartibga ega va bu turli hududlarda har xil vaqtda amaliyotga tatbiq etilgan.

Misol uchun, 1976-yil Kaliforniya shtati, San-Diego Probatsiya bo'limi sudgacha qamoqda saqlashning muqobili sifatida uy qamog'i dasturini joriy etgan bo'lib, unga ko'ra huquqbuzarlik sodir etgan, ammo voyaga yetmagan shaxslar sud vaqtigacha uy qamog'ida saqlangan. Undagi tartib va majburiyatlar hozirgi kunda amalda qo'llanayotgan shartlar bilan deyarli bir xil bo'lgan. 1979-yilda Illinois shtati sudgacha uy qamog'i chorasini joriy etdi [6].

Ayrim shtatlarda aynan uy qamog'iga ehtiyot chorasi sifatida qaralmasa-da, lekin o'zida uning deyarli barcha jihatlarini namoyon qiluvchi nazorat turlari mavjud. Xususan, Florida shtatida amalda bo'lgan *Florida Community Control* (Florida jamoat nazorati) esa o'zida uy qamog'i ehtiyot chorasi elementlarini aks ettiradi. Uni qo'llashdan avval sud ikki faktga jiddiy e'tibor beradi:

- a) sodir etilgan jinoiy ishning hajmi va uning jamiyatga salbiy ta'siri;
- b) uy qamog'i chorasi qo'llanadigan shaxsning shaxsiy sifatlari va avval jinoyat sodir etgan yoki etmagani.

Shuningdek, Vashington shtatida "*Pre-trial Release*" – sudgacha ozodlikka qo'yish (saqlash) protsessual ehtiyot chorasi bo'lib, bunda biror jinoyat uchun hibsga olingan shaxs, uning sudi davom etayotgan paytda qamoqdan ozod qilinishi tushuniladi. Sudgacha ozodlikka qo'yish bilan bog'liq masalalarni ba'zan tushunish qiyin bo'lishi mumkin, lekin jinoyatda ayblangan shaxslar qamoqdan qachon ozod qilinishi mumkinligini bilish huquqiga ega. Biror shaxs sodir etgan jinoiy qilmishi uchun sudga qadar hibsga olinganda odatda ikki asosiy yo'l bilan qamoqdan ozod qilinishi mumkin:

- *personal recognizance* (izoh: bizning qonunchilikdagi munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxatga o'xshash) ozodlikka qo'yish;
- garov pulini qo'yish orqali.

E'tiborlisi, ikkala holatda ham sudya sudgacha ozodlikka qo'yish paytida qo'shimcha xulq-atvor shartlarini belgilaydi.

Jumladan, shaxsiy *recognizance* ozodlikka qo'yish holatida ayblanuvchilar odatda quyidagilar asosida qamoqdan ozod qilinadilar:

- kelgusida har qanday sud majlislarida qatnashish va'dasi asosida yoki sudgacha ozodlikka qo'yish dasturi bilan bog'liq holda (RCW 10.21.015 ga ko'ra, "sudgacha ozodlikka qo'yish dasturi" – istalgan darajadagi sudda, tuman yoki shahar tomonidan bevosita boshqariladigan yoki davlat yoki xususiy tashkilot tomonidan boshqariladigan dasturdir). Unda ayblanuvchi sudgacha ozod qilinadi va ular (politsiya yoki xususiy agentliklar) ayblanuvchini kuzatib turishga rozi bo'ladi.

Ushbu qonun bo'yicha "kuzatish" quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin (lekin bular bilan cheklanib qolinmaydi), ya'ni ish joyida bo'lish, kunduzgi nazorat, elektron kuzatish yoki 24/7 hushyorlik dasturida ishtirok etish.

Garov puli nima? Yuqorida aytib o'tilganidek, "garov puli" ayblanuvchining qamoqdan ozod qilinishi sharti sifatida to'lash kerak bo'lgan pul miqdoridir. Ayblanuvchi to'lashi kerak bo'lgan garov puli miqdori jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab farq qiladi. Vashington okruglarida kichik jinoyatlar uchun belgilangan garov puli ro'yxatlari mavjud. Og'ir jinoyatlar bo'yicha esa odatda sudda ayblanuvchiga garov puli miqdori belgilanadi. Garov puli miqdori ayblovning jiddiyligiga, ayblanuvchining jinoyat va shaxsiy tarixiga, oila va jamoat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga, shuningdek, har bir ishda paydo bo'ladigan individual omillarga bog'liq bo'ladi.

Ayblanuvchi garov pulini qo'yishi uchun uchta asosiy yo'l mavjud. Ular: naqd pul bilan garov, kafolatli garov yoki mulkiy garov. Naqd pul bilan garov odatda garov puli miqdori past bo'lganda ishlatiladi. Bu yerda ayblanuvchi sudga garov puli miqdorini bevosita o'z mablag'laridan to'laydi (yoki qo'shma imzoga ega bo'lgan kishi bu miqdorni to'laydi). Agar ayblanuvchi barcha belgilangan sud sanalarida qatnashsa, to'langan summa qaytariladi.

Kafolatli garovda ayblanuvchi naqd pul bilan garovni to'lashga qodir bo'lmaganda, garov kompaniyasini sudga garov to'lovini kafolatlash uchun yollaydi. Kafolatli garovning narxi odatda to'lanishi kerak bo'lgan umumiy garov puli miqdorining 8–10 foizini tashkil etadi. Garov kompaniyasi keyin sudga garov yozuvini qo'yadi va agar ayblanuvchi belgilangan tartibda sudga kelmasa, garov puli miqdorini to'lash mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Ayblanuvchi garov kompaniyasiga to'lagan miqdor qaytarilmaydi.

Mulk garovi bo'yicha ayblanuvchi sudga o'z mulkini garovga qo'yish imkoniyatini beradi. Agar ayblanuvchi sud sanasida qatnashmasa, sud keyinchalik mulkni musodara qilish jarayonini boshlashga haqli bo'ladi. Ushbu garov Vashington qonunlariga ko'ra mavjud bo'lsa-da, kamdan kam ishlatiladi [7].

Ozodlikka qo'yish shartlariga ko'ra, sud kimnidir shaxsiy *recognizance* bilan yoki garov puli bilan ozodlikka qo'yganida, shuningdek, sudgacha ozodlikka qo'yish paytida ma'lum bir xulq-atvorni talab qiladigan ozodlikka qo'yish shartlarini ham belgilaydi. Sudlar, masalan, qo'shimcha jinoyat qilish taqiqi, davlatdan chiqib ketish taqiqi va



narkotiklar va/yoki spirtli ichimliklardan voz kechish talabini belgilashi mumkin. Sudlar, shuningdek, gumon qilinayotgan jinoyat jabrlanuvchilari bilan aloqani taqiqlash buyruqlarini ham belgilashi mumkin. Bu, ayniqsa, zo'ravonlik, jinsiy tajovuz va oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarda deyarli har doim amalga oshiriladi.

Texas shtatida esa uy qamog'i shartli ozodlik sharti bo'lib, odamlardan o'z uylarida qolishlari va jamiyatda kuzatilishi talab qilinadi. Shaxs tizza yoki bilagiga o'rnatiladigan uzatkich yoki 24 soat davomida taqib yoki olib yuriladigan kuzatuv qurilmasi orqali kuzatuv tizimiga ulanadi. Uy qamog'i sharoitida sud odamlarni cheklash darajasini har bir ish bo'yicha alohida belgilaydi, ba'zi odamlarga uydan 24 soat davomida chiqmaslikni talab qilishi mumkin, boshqalarga esa ish, maktab, tibbiy yoki ruhiy salomatlik davolanishi, cherkov, advokat bilan uchrashuvlar, sudga ko'rinishlar yoki boshqa sud tomonidan belgilangan majburiyatlar uchun oldindan tasdiqlangan va rejalashtirilgan chiqishlarga ruxsat beriladi.

Sud uy qamog'idan odamlarni nazorat qilish va ular tomonidan paydo bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday tahdiddan jamoatchilikni himoya qilish uchun foydalanadi. Uy qamog'i sudgacha bo'lgan davrda qamoqning o'rniga jamoatchilik xavfsizligini oshirish uchun ishlatiladi.

Sudgacha xizmatlar ofitseri (*The Pretrial Services Officer*) odamlarning uy qamog'i uchun mosligini tekshiradi. Ofitser uy qamog'idagi shaxsning tasdiqlangan jadvalga rioya qilayotganiga ishonch hosil qiladi, monitoring uskunasi ishlayotganini tekshirish va buzilish belgilarini qidirish uchun uy tashriflarini amalga oshiradi.

Sudgacha xizmatlar ofitseri uy qamog'idagi ayblanuvchilar tasdiqlangan jadvalga rioya qilmayotgani, tasdiqlanmagan joylarga borgan, uskunani buzgani yoki ozodlik shartlarini buzganini bildiruvchi ogohlantirishlarga javob beradi, nojo'ya xatti-harakat sodir etilganini aniqlasa, vaziyatni nazorat qilish va tuzatish uchun choralar ko'radi.

Sudgacha xizmatlar ofitseri uy qamog'idagi shaxslarni tasdiqlangan jadvalga rioya qilayotganliklarini tekshirish uchun tez-tez telefon qo'ng'iroqlari qiladi, kutilmagan yuzma-yuz tashriflar o'tkazadi va ogohlantirishlarga kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun javob beradi [8].

AQShda jinoyat-protsessual ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i (sudgacha ozodlikda saqlash)ni qo'llashning shartlari va tartibini o'zida aks ettirgan muhim hujjatlardan biri Qo'shma Shtatlarining Federal darajadagi "1984-yilgi Garov islohoti qonuni"dir ("Bail Reform Act of 1984").

Unga ko'ra, sudgacha ozodlikda saqlash tartibi quyidagicha[9]:

1) gumonlanuvchi (ayblanuvchi)ning yozma iltimosnomasiga ko'ra hech qanday shartlarsiz;

2) belgilangan shartlarning biri (yoki bir nechta)ni bajarish sharti bilan.

Ammo sudgacha ozodlikda saqlash uchun belgilangan shartlar shtatlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu, avvalo, jinoyat ishi va ayblanuvchi ozodlikda qoladigan bo'lsa u jamiyat xavfsizligiga qay darajada xavf solishi mumkinligiga bog'liq.

Sudgacha ozodlikda saqlash shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin [10]:

- narkotik moddalar iste'mol qilinganini nazorat qilish (*drug testing*);
- biriktirilgan shaxs nazoratida bo'lish (Bu shaxs belgilangan shartlar amalga oshirilishi yuzasidan va ayblanuvchining jamiyatga xavf tug'dirmasligi uchun javobgar. Shuningdek, bunda biror shubhali hol ro'y bersa, sudga xabar berishi lozim);
- uy qamog'i;
- ish jarayonidan uzilmaslik (yoki ish izlash);
- ta'lim dasturlarida qatnashish;
- ma'lum bir shaxslar bilan muloqotga kirishmaslik;
- mavjud jinoiy ishga aloqador har qanday shaxs (guvoh, jabrlanuvchi yoki boshqa) lar bilan muloqotga kirishmaslik, bunga harakat ham qilmaslik;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlarga belgilangan vaqtda hisobot berish, aloqaga chiqish;
- xavfli qurollarga egalik qilmaslik;
- belgilangan joylardan boshqa joylarga chiqmaslik;
- jamoat joylari (bog'cha, maktab, shifoxona va boshqalar)ga belgilangan masofadan ortiq yaqinlashmaslik;
- ordersiz tintuvlarga rozi bo'lish;
- telefon nazorati;
- reabilitatsiya markazida bo'lish (*halfway house*);
- elektron braslet taqib yurish;
- mol-mulkni xatlovga olish (*freezing of assets*);
- internet va kompyuterdan foydalanish yuzasidan cheklov va nazorat o'rnatish;
- nazoratchining oldindan rejalashtirilmaydigan va ogohlantirish berilmasdan amalga oshiradigan tekshiruvlariga rozilik berish.

Shuningdek, sud tomonidan jamiyat va odamlar xavfsizligini saqlash maqsadiga muvofiq har qanday majburiyat ana shu shartlar qatoriga kiritilishi mumkin.

Shtatlarda uy qamog'i borasida tartib turlicha bo'lishiga qaramasdan, uy qamog'ini qo'llashda ular e'tibor qiladigan asosiy jihat bu ozodlikda saqlanadigan shaxsning jamiyatga qay darajada xavf tug'dirishi mumkinligidir.

Tadqiqot natijalari tahlili

AQShdagi uy qamog'i tizimining ko'plab boshqa davlatlardan farqli jihati, u yerda uy qamog'i yagona chora sifatida emas, balki qo'llanadigan choralarning bir qismi sifatida ko'rilishidadir. Bu choralar soni va turi, birinchidan, jinoyat ishida ayblanayotgan shaxs va uning jinoyatga moyilligi hamda sudgacha bo'lgan davrda qochib ketish xavfiga, ikkinchidan esa ushbu ishni qaysi shtatda ko'rilyotganiga bevosita bog'liqdir.

Bunday baholashni yengillashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida turli dasturlar va treninglar mavjud bo'lib, ulardan biri AQSh Sudlari Administrativ Ofisi (the Administrative Office of the U.S. Courts – AO) tomonidan ishlab chiqilgan PTR (Pretrial Risk Assessment) dasturidir. Bunda:

1. Ayblanuvchining sudgacha bo'lgan vaqtda qochib ketish xavfi;
2. Ozodlikda qayta jinoyat sodir etish mumkinligi;

3. Unga qo'yilgan majburiyatlarni bajarmaslik ehtimollari o'rganib chiqiladi.

Shuningdek, sudylar uchun turli o'quv-amaliy dasturlari yo'lga qo'yilib, unda sudgacha davrda ozodlikda saqlashni qo'llash borasida mashg'ulot olib boriladi. Ulardan biri DROP (*Detention Reduction Outreach Program*) hisoblanadi [11].

AQSh Sudlari Adminstrativ Ofisi PRDD (*Pretrial Release and Detention Dashboards*) onlayn platformasi ishlab chiqilgan bo'lib, sudylar platformada mavjud statistik ma'lumotlar asosida, ular ozodlikda saqlanishi lozim deb topgan qarorini baholab olishi mumkin. Shuningdek, bu platforma orqali sud qaysi choralar ko'p qo'llangani va samaradorligini ham tekshirib ko'ra oladi [12].

Bu va bu kabi turli dasturlar sudlarga uy qamog'i chorasini yana qaysi choralar bilan birga qo'llash borasida bir qarorga kelishida yordam beradi.

AQShdagi har bir shtat o'z hududida (yurisdiksiyasida) uy qamog'iga oid tartib-qoidalar o'rnatgan. Masalan, Kaliforniya Jinoyat kodeksi (ushbu kodeks sudgacha ish yuritish protsessual tartiblarini ham o'z ichiga oladi [13]) 1203.16-bandida uy qamog'i va unga oid tartib-qoidalar belgilangan [14].

Unga ko'ra, 4 ta asosiy qoida shart bo'lib, ular boshqa tartib-qoidalar bilan ham to'ldirilishi mumkin:

- belgilangan vaqt ichida uyda bo'lish;
- ayblanuvchi nazoratchi inspektorning oldindan rejalashtirilmagan tekshiruvlariga rozi bo'lishi;
- elektron qurilmalar (GPS – *Global Positioning System*) yordamida tekshirilish, doimiy nazoratda bo'lishga rozilik berishi;
- ayblanuvchi GPS ishlamay qolgan taqdirda, belgilangan hududdan tashqariga avvaldan ruxsat olmasdan chiqqanda yoki ayblanuvchi belgilangan tartib-qoidalarini buzgan holatlarda nazoratchi inspektor tomonidan "uy qamog'i" chorasi bekor qilinib, qamoqqa olish chorasi qo'llanishi.

Uy qamog'ini amalga oshirish uchun turli xil xususiy va davlat agentliklari mavjud bo'lib, ular va davlat o'rtasida shartnoma tuziladi. Shartnoma ichiga olishi lozim bo'lgan shartlar shtat tomonidan belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilardir [14]:

birinchidan, agentliklar davlat organlari (misol uchun, *Corrections Standard Authority*) tomonidan belgilangan standartlar asosida faoliyat yuritishga majbur;

ikkinchidan, shartnomada davlat va agentlik huquq va majburiyatlari aniq va tushunarli qilib yozilishi kerak;

uchinchidan, iqtisodiy javobgarlikning belgilanishi. Ya'ni ayblanuvchi qochib ketishi yoki biror qilmishi natijasida vujudga keladigan zararni qoplashga yetarli bo'ladigan mablag' mavjud bo'lishi lozim. Shartnomaga har yili nazoratchi administrator tomonidan qayta o'zgartrish kiritilishi mumkin;

to'rtinchidan, agentlik tomonidan iqtisodiy javobgarlikni qoplashi ko'rsatilgan sug'urta sertifikati ko'rsatilishi lozim;

beshinchidan, agentlik belgilangan qoidalarga amal qilmasa, nazoratchi yoki taftishchi tomonidan bu shartnoma bekor qilinishi mumkin.

AQShda ayblanuvchini sudgacha uy qamog'ida saqlashning afzalliklari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

- ish bilan ta'minlanganlikni saqlash: asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ayblanuvchilar ishlashda davom etib, o'zlarini va oilalarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lishadi;
- qamoqxonalar haddan tashqari to'lib ketishining oldini olish: sudgacha uy qamog'ini qo'llash orqali qamoqda saqlanayotgan shaxslar soni kamaytiriladi, qamoqxonalar haddan tashqari to'lib ketish muammosi bartaraf etiladi;
- aybsizlik prezumpsiyasi: uy qamog'ini qo'llash "aybi tasdiqlanmagunicha aybdor emas" prinsipini qo'llab-quvvatlaydi, chunki ayblanuvchilar sud jarayonini kutayotganda o'z kundalik hayotlarini saqlab qolishlari mumkin [15].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatda ayblanayotgan shaxs, agar sudgacha qamoqda saqlanmasa, o'z himoyasini yaxshiroq tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mahalliy qamoqxonalarda mahbuslar sonini kamaytirishdan tashqari, sudgacha ma'lum shartlarda ozod qilish shaxslarga ish joyini, uy-joyini va oila mas'uliyatlarini saqlash imkonini beradi [16].

Xulosalar

Amalga oshirilgan tadqiqotga tayanib, xulosa o'rnida AQSh qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ining o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Qo'shma Shtatlardagi uy qamog'i tizimining ko'plab boshqa davlatlardan farqli, o'ziga xos jihati shundaki, u yerda uy qamog'i yagona chora sifatida emas, balki qo'llanadigan choralarning bir qismi sifatida ko'riladi.

Uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llash tartibi va shartlari nafaqat federal qonunlarga, balki faqat ma'lum bir shtatni qamrab oluvchi shtat qonunlariga ham asoslanadi.

Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i aksariyat (deyarli barcha) shtatlarda sudgacha ozodlikda saqlash shartlarining bir turi sifatida ko'riladi va alohida yakka holatda deyarli qo'llanmaydi.

Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash asosi hamda shartlari bo'yicha yagona va qat'iy o'rnatilgan talablar mavjud emas, biroq umumiy tartibda ayblanuvchining sudgacha bo'lgan vaqtda qochib ketish xavfi, ozodlikda qayta jinoyat sodir etish mumkinligi, unga qo'yilgan majburiyatlarni bajarmaslik ehtimollari mazkur ehtiyot chorasini qo'llashda asos sifatida ko'riladi.

Uy qamog'i ijrosini nazorat qilish uchun turli xususiy va davlat agentliklari mavjud bo'lib, ular hamda davlat o'rtasida shartnoma tuziladi. Bu, o'z navbatida, davlat uchun muayyan xarajatlarni tejash imkonini beradi.



REFERENCES

1. Pretrial Release: Detention, National conference of state legislature. Available at: <https://www.ncsl.org/civil-and-criminal-justice/pretrial-release-detention>
2. Alabama Constitution. Justia US Law. Available at: <https://law.justia.com/constitution/alabama/CA-245547>
3. The Constitution of the State of Arizona. Available at: https://www.azleg.gov/const/arizona_constitution.pdf
4. Constitution of Indiana 2018. Available at: [https://s3.us-east-2.amazonaws.com/iga-publications/indiana_constitution/Archive%20Constitution%20\(as%20amended%202018\).pdf](https://s3.us-east-2.amazonaws.com/iga-publications/indiana_constitution/Archive%20Constitution%20(as%20amended%202018).pdf)
5. Constitution of Oklahoma. Available at: <https://oksenate.gov/sites/default/files/2019-12/AlloKConstitutionArticles.pdf>
6. Hurwitz J.N. House Arrest: A Critical Analysis of an Intermediate-Level Penal Sanction, *U. Pa. L. Rev.*, 1987, no. 135, p. 771. Available at: https://scholarship.law.upenn.edu/penn_law_review/vol135/iss3/5
7. Revised Code of Washington (RCW): Available at: <https://www.blacklawseattle.com/pre-trial-release-in-washington-state>
8. Texas Code of Criminal procedure, Art. 17.44. Home Confinement, Electronic Monitoring, and Drug Testing as Condition: Available at: <https://statutes.capitol.texas.gov/Docs/CR/htm/CR.17>
9. The Bail Reform Act of 1984, 3142. Available at: <https://www.fjc.gov/sites/default/files/materials/57/The%20Bail%20Reform%20Act%20of%201984-Fourth%20Edition>
10. The Bail Reform Act of 1984, 4th ed., Federal Justice Center, 2022, p. 3142.
11. Hoffer S.J.V. U.S. Probation Office, District of Kansas. Federal Pretrial Release and the Detention Reduction Outreach Program.
12. Probation and Pretrial Services. Available at: <https://www.uscourts.gov/services-forms/probation-and-pretrial-services/supervision>
13. Pretrial Release in California: Legal Parameters for Evidence-Based Practices, National conference of state legislature. Available at: https://www.ncsc.org/_data/assets/pdf_file/0017/1583/23bpretriallegalbrief82315.ashx.pdf
14. Everything You Need to Know About Pre-Trial Home Confinement. Available at: <https://www.startingabailbondbusiness.com/everything-you-need-to-know-about-pre-trial-home-confinement/>
15. Benefits of Pretrial Services. Available at: <https://jeffersoncounty.in.gov/435/Benefits-of-Pretrial-Services>

KRIMINOLOGIYA

VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2024-yil 3-son